

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

YANGIBOYEV HUSNIDDIN ABDUMAJITOVICH

**BEVOSITA SOLIQLARNING BUXGALTERIYA HISOBI VA SOLIQQA
TORTISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit**

**Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора (DSc)
экономических наук**

Contents of dissertation abstract of Doctor of Science (DSc)

Yangiboyev Husniddin Abdumajitovich

Bevosita soliqlarning buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish metodologiyasini takomillashtirish..... 3

Янгибоев Хусниддин Абдумажитович

Совершенствование методологии бухгалтерского учета и налогообложения прямых налогов..... 37

Yangiboyev Husniddin Abdumajitovich

Improving the methodology of accounting and taxation of direct taxes..... 73

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 79

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

YANGIBOYEV HUSNIDDIN ABDUMAJITOVICH

**BEVOSITA SOLIQLARNING BUXGALTERIYA HISOBI VA SOLIQQA
TORTISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit**

**Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.DSc/Iqt461 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtorlari uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezym)) ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Kurbanov Ziyat Niyazovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich
iqtisodiyot fanlari doktori, akademik

Ibragimov Abdug'apor Karimovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ashurova Nasiba Batirovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:


O'zbekiston Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi DSc 03/10.12.2019.1.16.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil "30 10 soot 19th dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100063, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel: (0 371) 232-64-21; faks: (0 371) 239-41-23, info@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1788 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100063, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel: (0371) 232-64-21; faks: (0 371) 239-41-23, info@tsue.uz.

Dissertatsiya avtorlari 2025 yil "15 10" kuni tarqatildi.

(2025 yil "15 10" dagi № 87 raqamli reestr bayonomasi).



KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati. Jahon iqtisodiyotida bevosita soliqlarning buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish metodologiyasini takomillashtirish, avvalo, fiskal siyosatning samaradorligini oshirish, soliq tushumlarining prognoz qilinuvchanligini ta'minlash va korxonalar faoliyatida moliyaviy shaffoflikni kuchaytirishda muhim omil hisoblanadi. Zamonaviy buxgalteriya standartlariga asoslangan metodologik yondashuvlar bevosita soliqlarning (daromad solig'i, foyda solig'i va boshqalar) aniq hisobini, soliqqa tortish bazasining to'g'ri aniqlanishini va soliq yukiningadolatli taqsimlanishini kafolatlaydi. "Korporativ daromad solig'i uchun buxgalteriya va audit standartlarini takomillashtirish moliyaviy shaffoflikni oshiradi va daromadni boshqa yurisdiktsiyalarga o'tkazish imkoniyatlarini kamaytiradi, bu esa soliq to'lash intizomini va tushumlar samaradorligini oshiradi"¹. "Germaniyada joriy etilgan standartlashtirilgan va raqamlashgan soliq hisobot tizimi biznes uchun ma'muriy yukni sezilarli darajada kamaytirdi va soliq majburiyatlarini real vaqt rejimida kuzatish imkonini yaratdi. AQShda daromad solig'i hisobini zamonaviylashtirish soliq prognozlashni yaxshiladi va auditorlik bahslarini minimallashtirdi"². Shu bilan birga, metodologiyaning takomillashuvi soliq xatoliklarini kamaytirish, audit tizimini soddalashtirish, xalqaro moliyaviy hisobdorlik standartlariga moslashish va investitsion jozibadorlikni oshirish orqali iqtisodiy faollikka ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada, iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanish va davlat byudjeti barqarorligini ta'minlash imkoniyati kengayadi.

Jahonda iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashda budget-soliq mexanizmining ahamiyatini oshirish, bevosita va bilvosita soliqlarning optimal nisbatini shakllantirish borasida muhim tadqiqotlar olib borilmoqda. Bevosita soliqlarning budget tushumlariga ta'sirini kuchaytirish, aholi va ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy faolligini rag'batlantirish, mamlakat hududlaridagi iqtisodiy faoliyatning turli tafovut va sharoitlaridan kelib chiquvchi tengsizlik holatlarini yumshatish, mulkdan tejaml va samarali foydalanish, aholi daromadlari o'rtasidagi tabaqalanish darajasini tartibga solish, soliq tushumlarini prognozlash va ularning yig'iluvchanlik darajasini oshirish kabilar bu boradagi tadqiqot yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda bevosita soliqlarning buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish metodologiyasini tartibga solish orqali soliqqa tortish mexanizmi samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Iqtisodiy subyektlarning samarali va tejamkor faoliyatini rag'batlantirish, jismoniy va yuridik shaxslarning daromad va foydani ko'paytirishdan manfaatdorligini oshirish, budgetni soliq tushumlari bilan to'ldirishga undovchi moslashuvchan mexanizmni yaratishga harakat qilinmoqda.

¹ Improving the accounting and auditing standards for corporate income taxation increases transparency and reduces profit-shifting opportunities, thereby enhancing tax compliance and revenue collection efficiency. OECD, 2022. Corporate Tax Statistics: Fourth Edition. Paris: OECD Publishing.

² A standardized and digitized tax accounting framework adopted in Germany has significantly reduced administrative burdens for businesses and improved real-time monitoring of tax liabilities. - Federal Ministry of Finance of Germany, 2021. Digitalisation of Tax Administration Report.; Modernizing income tax accounting rules in the U.S. has facilitated better tax forecasting and minimized audit disputes. - Internal Revenue Service (IRS), 2020. Taxpayer Compliance Trends and Forecasting.

Ushbu sa'y-harakatlar orqali bevosita soliqlarni hisoblash metodikasining ishlab chiqilishi, soliqlar va soliqqa tortish mexanizmining takomillashuvi, xalqaro standartlar amaliyatga joriy etilishi munosabati bilan xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy va soliq hisobotlarining muvofiqlashuvi kabi jarayonlarni samarali tashkil etish muhim vazifalardan hisoblanadi. Mazkur vazifalarni izchil hal etish, tadbirkorlik subyektlariga foyda solig'i hisobini takomillashtirish, yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati bo'yicha soliqni hisoblash, jismoniy shaxslar daromad solig'ini belgilash va to'lashda yengilliklar berish kabi muammolarning ilmiy yechimini taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljalangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2018-yil 29-iyundagi PF-5468-son "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiysi to'g'risida"gi farmonlari, 2018-yil 13-fevraldagi F-5214-son "Soliq qonunchiligini tubdan takomillashtirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoyishi, 2023-yil 29-dekabrdagi PQ-422-son "O'zbekiston Respublikasining 2024-yil uchun mo'ljalangan Davlat budjeti to'g'risidagi Qonunining ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 30-avgustdagi PQ-364-son "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2022-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" qarorlari va mazkur sohaga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga mos ravishda bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi³. Jahonda iqtisodiy o'sishni tarkibiy islohotlarni izchil davom ettirish, shuningdek, fiskal va monetar siyosatning o'zaro muvozanatli yuritish orqali makroiqtisodiy barqarorlikning ta'minlash, bevosita soliqlarning buxgalteriya hisobi va soliqqa tortishning to'g'ri va samarali tashkil etishni takomillashtirish bo'yicha ilmiy izlanishlar yetakchi universitet va ilmiy markazlarida, jumladan, Levi iqtisodiyot instituti (AQSh), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (Organisation for Economic Cooperation and Development); Xalqaro soliq va taraqqiyot markazi (The International Centre for Tax and Development, ICTD, AQSh); Fiskal tadqiqotlar instituti (Institute for Fiscal Studies, Buyuk Britaniya); Moliya bo'yicha amaliy tadqiqotlar markazi (The Center for advanced research in Finance, CARF,

³ Schroeder, Gocht, and Britz 2015, and Economic Research Service (ERS); Agricultural taxation under structural adjustment [2008]; Current fiscal issues fiscal monitor: policies for the recovery (2019), Fiscal Monitor: Fiscal Policy from Pandemic to War (2020); Отчет по форме № 2-НК. [Электронный ресурс]. – официальный сайт. – Режим доступа: Отчет по форме № 2-НК за 2018-2022 годы | ФНС России; <https://www.whitehouse.gov/omb/budget/historical-tables/>; <https://iqdecision.com/nalogi-v-s-sh-a-obzor/>;

Yaponiya); Japan International Cooperation Agency (JICA, Yaponiya); Koreya davlat moliyasi instituti (The Korea Institute of Public Finance, Koreya); The University of Faisalabad (Pokiston); Xalqaro Yevropa ta’lim markazi (Centre International de Formation Européenne (CIFE) Fransiya); Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti (Rossiya), Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti (O’zbekiston) tomonidan olib borilmoqda.

Jahonda bevosita soliqlarning buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish metodologiyasini takomillashtirishga oid tadqiqotlar natijasida qator ilmiy natijalarga erishilgan, jumladan: Rossiya Federatsiyasida 2018-2024-yillarda o’tkazilgan soliq tekshiruvlari soni va natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotlari tahlil qilingan (Rossiya Federatsiyasi); fiskal siyosatning bosqichlari, doimiyligi va o‘zgaruvchanligi davlat xarajatlariga ta’sir etishi aniqlangan; davlat xarajatlari doimiyligi va o‘zgaruvchanligi tadbirkorlarning bozordagi faolligi va iqtisodiy o’sishga ta’siri asoslangan (AQSh); aylanmadan olinadigan soliq to‘lovchi buxgalteriya hisobi subyektlari tomonidan moliyaviy hisobotlarni soliq va statistika organlariga har chorakda taqdim etish talabi bekor qilish hamda aylanmadan olinadigan soliqni qat’iy belgilangan soliq stavkasi bo‘yicha to‘laydigan tadbirkorlik subyektlari yillik moliyaviy hisobotlarni soliq organlariga topshirish majburiyatidan ozod etish, jismoniy shaxslar tomonidan yoshidan qat’i nazar farzandlarining respublika ta’lim tashkilotlarida ta’lim olishlari uchun yo‘naltiriladigan to‘lovlar soliq solinmaydigan daromadlar toifasiga kiritish asoslangan (O’zbekiston).

Jahonda bevosita soliqlarning buxgalteriya hisobi va soliqqa tortishning nazariy, normativ-huquqiy, uslubiy va amaliy asoslarini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda, jumladan: bevosita soliqlarning buxgalteriya hisobi va soliqqa tortishning normativ-huquqiy asosları takomillashtirish; yirik korxonalar faoliyati natijalarini buxgalteriya hisobida va moliyaviy hisobotda aks ettirish tartibini takomillashtirish; tadbirkorlik faoliyati hisobining metodologiyasini MHXS (IFRS) asosida takomillashtirish; bevosita soliqlarning buxgalteriya hisobi va soliqqa tortishning metodologiyasini tashkiliy-uslubiy jihatlarini takomillashtirish; bevosita soliqlarning buxgalteriya hisobi va soliqqa tortishning nazariy va normativ-huquqiy asoslarini shakllantirish.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Bevosita soliqlarni buxgalteriya hisobi va soliqqa tortishning nazariy, uslubiy hamda amaliy masalalari xorijlik iqtisodchi olimlardan Dj.Lokk, A.Smit, Dj.Keyns, I.Mayburov, A. Sokolovskaya, A. Gurev, J.Sismondi, N.Turgenev, B. Nidlz, X.Anderson, D.Kolduell, M. Metyus, X.Perera, D.Morse, J.Zimmerman va boshqalarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan⁴.

⁴John Locke Some Considerations of the Consequences of the Lowering of Interest and the Raising the Value of Money. 1692. (Collected Works. 1824,) 88-93: Кулишер И.М. Очерки финансовой науки. Вып.1. - Петрофад: Наука и Школа, 1919. - 121 : Кейнс Дж. Общая теория занятости, процента и денег. – М.: Прогресс. 1978. с. -210. : Майбуров И.А. Теория налогообложения./ И.А.Майбуров, А.М. Соколовская. – М.: ЮНИТА-ДАНА, 2020.-591 с.:Гурьев А. Н. Прямые и косвенные налоги. PRO и CONTRA. С-Петербург, 1893: Нидлз Б. и др. Принципы бухгалтерского учета / Б. Нидлз, Х. Андерсон, Д.Колдуэлл: Пер. с англ./ Под ред. Я.В. Соколова. -М: Финансы и статистика,2003, с.13.: Мэтьюс М.Р.Перера, М.Х.Б. Теория бухгалтерского учета. Учебник./ Пер. с англ./ Под ред. Я.В. Соколова. И. А. Смирновой.- М: Аудит, ЮНИТИ, 1999, с.65: Daic. C.Morse, Jeroid L.Zimmerman. Menageral Accounting. – Irwin, 1997. Р. 12.:

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlar E.Gadoev, N.Qo‘zieva, N.Ashurova, J.O‘rmonov, S.Xudoyqulov, A.Islamkulov, N.Haydarov, B.Toshmurodova, A.Musagaliev, B.Xasanov, Z.Qurbanov, K.Xotamov, S.Tashnazarov, N.Rizaev, A.Ibragimov, K.Urazov va boshqalarning ilmiy ishlarida bevosita soliqlarning buxgalteriya hisobi va soliqqa tortishning nazariy va ilmiy-uslubiy jihatlari, qisman, o‘z aksini topgan⁵. Xususan, A.Islamkulov tomonidan budget daromadlarida bevosita soliqlar tushumi barqarorligini bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. F.Isaev o‘zining ilmiy ishida soliq tushumlarining tahlilini tadqiq etgan va ilmiy takliflar bergan.

Biroq, yuqorida qayd etilgan iqtisodchi olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarida bevosita soliqqa tortishni takomillashtirish masalalari kompleks tarzda o‘rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan muassasasi ilmiy tadqiqot ishlarini rejalarini bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Soliq qo‘mitasi huzuridagi sobiq Fiskal institutning ilmiy-tadqiqot ishlarini rejasiga muvofiq “Raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq ma‘muriyatchiligi va xalqaro soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish” mavzusida tadqiqot doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi bevosita soliqlarning buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish metodologiyasini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bevosita soliqlar buxgalteriya hisobi hujjatlarini saqlash muddatlarini zamonoviy talablar asosida takomillashtirish va bevosita soliqlar hisobini MHXS asosida takomillashtirish bo‘yicha takliflar berish;

jismoniy shaxslar uchun daromad solig‘i bo‘yicha soliq solinmaydigan toifasini shakllantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

bevosita soliqlarning buxgalteriya hisobi va soliqqa tortishni ilmiy tadqiq etish natijalari asosida soliq qonunchiligiga oid me’yoriy-hujjatlarni takomillashtirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqish;

soliq ma‘muriyatchiligin raqamlashtirishning bevosita soliqlar bazasini aniqlash, hisoblash va byudjetga to‘lash mexanizmiga ta’siri bo‘yicha asoslangan takliflar ishlab chiqish;

foyda solig‘i to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini

⁵ Yuridik shaxslarni soliqqa tortish. Darslik. / E.Gadoev, N.Qo‘zieva, N.Ashurova, J.O‘rmonov. T.: IQTISOD-MOLIYA. 2013.-616 b: S.Xudoyqulov, Soliq tushumlarini proqnoz qilish metodologiyasini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. Toshkent .2019. : Islamkulov A.X. Budget daromadlarida bevosita soliqlar tushumi barqarorligini ta‘minlash yo‘llari: i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. – T.: BMA, 2012. - 21 b.: Haydarov N. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. – T.: Akademiya, 2007. – 54 b.: B.Toshmurodova, O.Xamdamov. Moliyaviy menejment TMI,-T.: “Iqtisod-Moliya” 2012. 160b: Musagaliev A.J., Mintaqqa budget daromadlarini shakllantirishda yuridik shaxslarni soliqqa tortish mexanizmlarining samaradorligini oshirish yo‘llari (Qoraqalpog‘iston respublikasi misolida): iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. Toshkent .2019: “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron журнali. № 2, mart-aprel, 2018 yil.: Xotamov K., Qurbanov Z. Soliqlar tahlilini takomillashtirish masalalari. // “Biznes-Ekspert” ilmiy-amaliy, iqtisodiy oylik журнali. : №8(92)-2015.: Tashnazarov S.N. (2016) Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy hisobot: muammo va yechimlar. Monografiya. T.: “Navro‘z” nashriyoti, 31-47-b. : O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar журнali 8-son 20.05.2022: №11 (2023): Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil : www.soliqvahayot.uz/packet/maqolalar/Maqolalar_2024_1_soni.pdf

berish shartlarini asoslash;

foyda solig'i bo'yicha har oyda bo'nak to'lovlari to'lashi lozim bo'lgan tadbirkorlik subyektlari daromadlarining ruxsat etilgan miqdorini oshirish takliflar ishlab chiqish;

ilk marotaba foyda solig'ini to'lashga o'tgan aylanmadan olinadigan soliq to'lovchilarni rag'batlantirish bo'yicha takliflarni asoslash;

bevosita soliqlarning buxgalteriya hisobini takomillashtirish maqsadida moliyaviy va soliq hisobotlarini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga moslashtirish yuzasidan amalii takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida bevosita soliqlar buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish jarayoni tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini bevosita soliqlarning buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish metodologiyasi bilan bog'liq moliyaviy va iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida taqqoslash, dialektik yondashuv, tizimli tahlil, shuningdek, iqtisodiy usullar, statistik va qiyosiy tahlil usullaridan foydalangan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

yuridik shaxslar ish haqi shaklidagi daromadlardan ijtimoiy soliq summasini buxgalteriya hisobini takomillashtirish maqsadida ish haqi shaklidagi daromadlardan ijtimoiy soliq summalarini xarajatlarni hisobga olish hisobvaraqlarida (2000, 2300, 2500, 2600, 2700, 9400) 6520-“Maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar” hisobvarag'i krediti bo'yicha aks ettirish taklifi asoslangan;

foyda solig'i bazasini to'g'ri aniqlash maqsadida asosiy vosita va nomoddiy aktivlarning harakati hamda amortizatsiya xarajatlarini ko'chmas mulk guruhlari bo'yicha hisobotda ko'rsatish taklifi asoslangan;

aylanmadan olinadigan soliq to'lovchi buxgalteriya hisobi subyektlari tomonidan moliyaviy hisobotlarni soliq va statistika organlariga har chorakda taqdim etish talabi bekor qilish hamda aylanmadan olinadigan soliqni qat'iy belgilangan soliq stavkasi bo'yicha to'laydigan tadbirkorlik subyektlari yillik moliyaviy hisobotlarni soliq organlariga topshirish majburiyatidan ozod etish taklifi ishlab chiqilgan;

mahsulot tannarxini hisoblashda, amortizatsiya qilinadigan aktivning alohida guruhini tashkil etishi va amortizatsiya ajratmalarining har yilgi summasi, soliq to'lovchining xohishiga ko'ra belgilanadigan amortizatsiya normasini qo'llash yo'li bilan biroq to'plangan xarajatlar summasining 33 foizidan ortiq bo'limgan miqdorda hisoblab chiqarilishi lozimligi asoslangan;

foyda solig'i bo'yicha har oyda bo'nak to'lovlari to'lashi lozim bo'lgan tadbirkorlik subyektlari daromadlarining ruxsat etilgan miqdorini 5 mlrd so'mdan 10 mlrd so'mgacha oshirish taklifi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

foyda solig'ini to'lashni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatini berish shartlari asoslangan, shuningdek, mansabdor shaxs mazkur holat bo'yicha bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatidan kalendar yil davomida birinchi marta

foydanayotgan bo'lsa, unda soliq qarziga olti oy davomida foizlar ham hisoblanmasligi takliflari berilgan;

davlat soliq xizmati organlariga elektron tarzda topshirilgan moliyaviy, soliq hisobotlar shuningdek soliq organining avtomatlashtirilgan axborot tizimlari orqali elektron shaklda rasmiylashtirilsa hujjatlar majburiy saqlanmaslik hamda ularni arxivga topshirmaslik kerakligi asoslangan;

foyda solig'i bazasini to'g'ri aniqlash maqsadida barcha xarajatlar hujjatlar bilan tasdiqlanishi shartligi asoslangan;

jismoniy shaxslar tomonidan yoshidan qat'i nazar farzandlarining respublika ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishlari uchun yo'naltiriladigan to'lovlar soliq solinmaydigan daromadlar toifasiga kiritish taklifi berilgan;

o'zini o'zi band qilgan shaxslarning mehnat faoliyati natijasida olingan daromadlari, shu jumladan talabalarning O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tashkilotlari hududida pullik o'quv kurslarini, sport to'garaklarini tashkil etishdan va boshqa ta'lim xizmatlarini ko'rsatishdan olingan daromadlari mehnat faoliyati natijasida yoki tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadlariga ushbu daromadlar soliq davrida yuz million so'mdan oshgan yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun belgilangan tartibda soliq solish bo'yicha takliflari berilgan;

2023-yil 1-yanvardan 2026-yil 1-yanvarga qadar O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi, uning hududiy bo'linmali, "O'zbekiston Professional futbol ligasi" jamoat birlashmasi, O'zbekiston futbol hakamlari markazi va professional futbol klublari o'zi jalb qilgan chet el mutaxassislari va futbolchilarining daromadlaridan to'lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan ozod qilish bo'yicha bergen taklifi asoslangan;

aylanmadan olinadigan soliq to'lovchi tadbirkorlarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, 2024-yildan boshlab aylanmadan olinadigan soliq to'lovchilar ixtiyoriy asosda qat'iy belgilangan miqdorda soliq to'lashni tanlashi, ya'ni jami daromad summasi 500 million so'mdan oshmaganda yiliga 25 million so'mdan, agar jami daromad summasi 500 million so'mdan oshganda yiliga 34 million so'm to'lashni tanlashi, qat'iy belgilangan summadagi soliq stavkasini qo'llash bo'yicha bergen taklifi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining haqqoniyligi ishda qo'llanilgan yondashuv hamda takliflarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning ishonchli rasmiy manbalardan olinganligi, shuningdek, tadqiqotlar me'yoriy-huquqiy-hujjatlar va tahlil, ma'lumotlarga asoslanganligi hamda xulosalar va takliflarning amaliyatga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ulardan bevosita soliqlarni hisoblash va undirishning nazariy-uslubiy asoslarini boyitishda, soliq siyosatini takomillashtirishga qaratilgan maxsus ilmiy tadqiqot ishlarida nazariy manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi va uning hududiy boshqarmalari tomonidan soliq amaliyotini

takomillashtirish, jumladan, bevosita soliqlar hisobini yuritish va soliq hisobotlarini tuzish jarayonlarini soddalashtirish va qulaylashtirish, soliq to‘lovlarining undiruvchanlik darajasini oshirish, soliq funksiyalari samaradorligini oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bevosita soliqlarning buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish metodologiyasi bo‘yicha ishlab chiqilgan ilmiy takliflar hamda amaliy tavsiyalar asosida:

yuridik shaxslar ish haqi shaklidagi daromadlardan ijtimoiy soliq summasini buxgalteriya hisobini takomillashtirish maqsadida ish haqi shaklidagi daromadlardan ijtimoiy soliq summalar xarajatlarni hisobga olish hisobvaraqlarida (2000, 2300, 2500, 2600, 2700, 9400) 6520-“Maqsadli davlat jamg‘armalariga to‘lovlar” hisobvarag‘i krediti bo‘yicha aks ettirish borasidagi taklifi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-dekabrdagi 661-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy soliqni taqsimlash, pensiya va boshqa to‘lovlarini to‘lash uchun ajratilgan xarajatlarni qoplash tartibi to‘g‘risida NIZOM” da o‘z aksini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining 2024-yil 7-martdagi №12-257-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida ijtimoiy soliq xarajat sifatida buxgalteriya hisobida to‘g‘ri aks ettiriladi va foyda solig‘ining bazasini to‘g‘ri hisoblanishi ta’minlangan;

foyda solig‘i bazasini to‘g‘ri aniqlash maqsadida asosiy vosita va nomoddiy aktivlarning harakati hamda amortizatsiya xarajatlarini ko‘chmas mulk guruhlari bo‘yicha hisobotda ko‘rsatish borasidagi taklif O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining 2023-yil 27-iyundagi “Soliq hisobotining shakllarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorning 1-9-ilovalariga o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi 42-sun buyrug‘i bilan foyda solig‘i bo‘yicha soliq hisoboti shakliga o‘zgartirish kiritilgan (O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining 2024-yil 7-martdagi №12-257-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi foyda solig‘i bo‘yicha soliq hisoboti shaklini takomillashtirish va foyda solig‘i bazasini aniqlashtirish imkoniy yaratilgan;

aylanmadan olinadigan soliq to‘lovchi buxgalteriya hisobi subyektlari tomonidan moliyaviy hisobotlarni soliq va statistika organlariga har chorakda taqdim etish talabi bekor qilish hamda aylanmadan olinadigan soliqni qat’iy belgilangan soliq stavkasi bo‘yicha to‘laydigan tadbirkorlik subyektlari yillik moliyaviy hisobotlarni soliq organlariga topshirish majburiyatidan ozod etish bo‘yicha bergen taklif O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 10-noyabrdagi “Hisobot taqdim etish va arxiv hujjatlarini saqlash tartib-taomillarini maqbullashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-419-son Qarorida o‘z aksini topgan va amaliyotga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasining 2023-yil 20-maydagi №15-54280-sun ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida aylanmadan olinadigan soliqni qat’iy belgilangan soliq stavkasi bo‘yicha to‘laydigan tadbirkorlik subyektlari yillik moliyaviy hisobotlarni soliq organlariga topshirish majburiyatidan ozod etilgan;

mahsulot tannarxini hisoblashda, amortizatsiya qilinadigan aktivning alohida guruhini tashkil etishi va amortizatsiya ajratmalarining har yilgi summasi, soliq to‘lovchining xohishiga ko‘ra belgilanadigan amortizatsiya normasini qo‘llash yo‘li bilan biroq to‘plangan xarajatlar summasining 33 foizidan ortiq bo‘lmasa miqdorda hisoblab chiqarilishi lozimligi bo‘yicha bergan taklifi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-812-son Qonuni bilan Soliq kodeksining 311-moddasida o‘z aksini topib, amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasining 2023-yil 20-maydagi №15-54280-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida foyda solig‘i bazasi aniqlashtirilib, byudjetga qo‘shimcha mablag‘ tushishi imkoni ta‘minlangan;

foyda solig‘i bo‘yicha har oyda bo‘nak to‘lovlari to‘lashi lozim bo‘lgan tadbirkorlik subyektlari daromadlarining ruxsat etilgan miqdorini 5 mldn so‘mdan 10 mldn so‘mgacha oshirish bo‘yicha taklifi asosida O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 29-dekabrdagi O‘RQ-891-son Qonuni bilan Soliq kodeksining 340-moddasiga o‘zgartirish kiritilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Byudjet va iqtisodiy islohotlar masalalari qo‘mitasining 2024-yil 21-maydagi № 26/2075-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida, Soliq kodeksining 340-moddasi “jami daromadi joriy soliq davridan oldingi soliq davri uchun kiritilgan tuzatishlar hisobga olingan holda o‘n milliard so‘mdan oshadigan soliq to‘lovchilar ushbu moddaning uchinchi - oltinchi qismlariga muvofiq hisoblab chiqarilgan har oylik bo‘nak to‘lovlari hisobot davri har bir oyining yigirma uchinchi kunidan kechiktirmay to‘laydi” tahririda bayon etilib, foyda solig‘i bo‘yicha byudjet tushumlari miqdorini oshishi imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro hamda 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan va ijobjiy baholangan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 30 ta ilmiy ish: shu jumladan, 2 ta monografiya, 1 ta o‘quv qo‘llanma, milliy OAK e’tirof etgan jurnallarda 17 ta, nufuzli xorijiy jurnallarda 7 ta ilmiy maqola, shuningdek, ilmiy-amaliy konferensiyalarda 10 ta ma’ruza va tezislar nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 290 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida ilmiy tadqiqotning dolzarbliji va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilinib, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Bevosita soliqlarni buxgalteriya hisobi va soliqqa tortishning ilmiy-nazariy asoslari**” deb nomlanib, unda soliqqa

tortishning zamonaviy nazariyalari: bevosita va bilvosita soliqlar nisbat nazariyasi, bevosita soliqlarning buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish metodlarini ilmiy-nazariy asoslari, bevosita soliqlarni ma'muriyatichiligi va metodologiyasining nazariy-huquqiy asoslari hamda xulosalar shakllantirilgan.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning yangi bosqichida erkin va shaffof bozor iqtisodiyotini shakllantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan ayni paytda, mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda soliq vositasining, shu jumladan bevosita va bilvosita soliqqa tortishning ahamiyati muhimdir.

Insoniyat doimiy tartibda to'lashga o'rganib qolgan bevosita va bilvosita soliqlarning ham ko'p yillik rivojlanish tarixi mavjud bo'lib, soliq munosabatlari dunyoning ilk sivilizatsiyasi davrlaridanoq shakllana boshlagan. Masalan, ilk soliq yig'imi joriy etilishi tarixi miloddan avvalgi uchinchi ming yillikda qadimgi Misrda shakllangan bo'lsa, keyinchalik soliq amaliyoti yunon sivilizatsiyasida rivojlandi, Markaziy Osiyo hududlarida esa miloddan oldingi birinchi ming yillikning boshlaridayoq ko'chmanchi urug' va qabilalar yer maydonlari, suv, o'tloqlar uchun o'zlaridan kuchliroq qabilalarga yer solig'i, ya'ni o'lpon to'lab turgan. E'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihat shundaki, soliqlarni joriy etishning ilk davrlaridanoq ularni adolatli o'rnatish masalasiga alohida e'tibor qaratilib, soliq munosabatlarini samarali amalga oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilgan.

Bugungi kunda O'zbekistonda va xalqaro amaliyotda soliqlar iqtisodiy mohiyati va xarakteriga qarab asosan, uch guruhga – bevosita, bilvosita, resur va mol-mul soliqlarga bo'lib o'rganilmoqda. Soliqqa tortishda soliqlarni guruhlarga ajratib, ularning mohiyatini yoritish eng avvalo, Yevropa mamlakatlarida shakllangan. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida bevosita soliqlar tarkibiga foyda solig'i, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, aylanmadan olinadigan soliqlar kirsa, bilvosita soliqlar tarkibiga esa qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i hamda bojxona bojilari kiradi (1-rasm)



1-rasm. Bevosita va bilvosita soliqlarning tartibi⁶

Bugungi kunda dunyoda 206 ta mustaqil davlat mavjud bo'lib, ularning soliq tizimi va soliq siyosatiga qaraydigan bo'lsak har bir davlat o'zining soliq mexanizmidan kelib chiqib soliq va soliqqa torish ishlarini amalga oshirib kelmoqda. Hozirigi kunda dunyoda 23 ta davlat bevosita soliqlardan foydalanmaydi,

⁶ Rasm muallif tomonidan tayyorlangan.

biroq bu davlatlar bilvosita soliqqa tortish mustosno. Bevosita soliqlar to‘lamaydigan davlatlarga Bagam orollari, Kayman, Bruney, Qatar hamda Birlashgan Arab Amirliklari mamlakatnii misol keltirishimiz mumkin.

1-jadvalda O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlari ijrosi o‘z aksini topgan.

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlari 2021-2023-yilning ijrosi⁷

mlrd so‘m.

Nº	Soliq turlari	2021-yil	2022-yil	2023-yil
	I. DAROMADLAR - JAMI	164 799	202 043	231 721
1.	Bevosita soliqlar	58 930	64 447	73 104
1.1	Foyda solig‘i	38 363	37 650	40 779
1.2	Aylanmadan soliq	1 649	2 513	2 407
1.3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	18 918	24 285	29 917
2.	Bilvosita soliqlar	56 290	71 390	83 326
2.1	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	38 439	52 189	57 885
2.2	Aksiz solig‘i	13 087	13 455	15 834
2.3	Bojxona boji	4 765	5 746	9 606
3.	Resurs to‘lovlari va mulk solig‘i	23 036	23 913	28 079
3.1	Mulk solig‘i	2 457	4 015	5 098
3.2	Yer solig‘i	4 083	5 306	6 890
3.3	Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq	15 812	13 887,0	15 300,0
3.4	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	684	704	791
4.	Boshqa daromadlar	26 542	42 293	47 212


Bunda shuni ko‘rish mumkini bilvosita soliqlar davlat budjeti daromadlar qismida uzoq yillar yetakchilik qilib kelgan bo‘lsa, 2022-yilga kelib 71 390 mlrd so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, bevosita soliqlar ulushi 64 447 mlrd so‘mni tashkil qilib davlat budjeti daromadlari qismida birinchi o‘ringa chiqqan bo‘lsa 2022-yilda bilvosita soliqlarni ulushi 83 326 mlrd so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, bevosita soliqlar ulushi 73 104 mlrd so‘mni tashkil etgan.

Buxgalteriya hisobi tadbirkorlar mablag‘larini ishlab chiqarish va taqsimlash jarayonida moddiy ishlab chiqarishni tashkil qilish, boshqarish va rahbarlik qilish uchun juda muhim hisoblanadi. Soliq hisobining predmeti deganda xo‘jalik yurituvchi subyektlar va tadbirkorlarning xo‘jalik faoliyatini yuritish asosida soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha kelib chiqadigan majburiyatlarni hisoblash, to‘lash va tahlil qilish tushuniladi. Bu ta’rifdan ko‘rinib turibdiki, buxgalteriya hisobining predmeti soliq hisobi predmetiga nisbatan keng tushuncha bo‘lib, soliq hisobi buxgalteriya hisobi predmetining tarkibiga kiradi va uning mohiyatini yanada aniqlashtiradi.

Soliq hisobining metodi – xo‘jalik yurituvchi subyektlarning xo‘jalik operatsiyalari, aktivlari, soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha majburiyatlar, daromad, xarajat va foyda ko‘rsatkichlarini aks ettiruvchi usullar majmuasidir. Soliq

⁷ Jadval O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

hisobining subyekti bo‘lib soliq to‘lovchi yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi. Soliq hisobining obyektlarini aniqlashda bevosita buxgalteriya hisobining obyektliga murojaat qilishimiz kerak. Chunki buxgalteriya hisobining obyektlari moliyaviy, boshqaruv va soliq hisoblari obyektining asosi hisoblanadi. Soliq hisobining konsepsiysi – soliq hisobini yuritish va soliq hisobotini tuzishning asosiy nazariy tamoyillarining majmuasidir. Bu ta’rifdan ko‘rinib turibdiki, konsepsiya elementlari bo‘lib soliq hisobining tamoyillari hisoblanadi. **Soliq hisobi** – mustaqil faoliyat yurituvchi barcha jismoniy va yuridik subyektlarning soliq va yig‘imlar bo‘yicha soliq tortish bazasini aniqlash uchun zarur bo‘lgan boshlang‘ich ma’lumotlarni hisobga olish tizimidir.



2-rasm. Hisob turlarining tasnifi⁸

Soliq hisobining vazifasi – bu hisobot davrida soliq to‘lovlarini to‘g‘ri hisoblash uchun zarur bo‘lgan ishonchli ma’lumotlarni hisobga olish, hamda ichki va tashqi foydalanuvchilarni zaruriy ma’lumotlar bilan ta’minlashdan iborat.

Buxgalteriya hisobi tarkibiga “soliq hisobi”ni kiritish natijasida hisob turlarining tasnifi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi (2-rasm).

Buxgalteriya hisobi moliyaviy, boshqaruv va soliq hisoblardan tashkil topgan. Moliyaviy, hisobning yakuni sifatida moliyaviy hisobotlar tuzilsa, boshqaruv hisobi natijasida boshqaruv qarorlari ishlab chiqiladi, soliq hisobining yakuniy natijasida esa - **soliqlar bo‘yicha hisobot** tuziladi. Moliyaviy boshqaruv va soliq hisoblari bir-biri bilan bog‘liq bo‘lib, bir-birini ma’lumotlar bilan to‘ldiradi. Bu esa, buxgalteriya hisobi axborotlaridan foydalanuvchilar uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni to‘liq olish imkoniyatini beradi.

Dissertatsiyaning **“Bevosita soliqlarning buxgalteriya hisobini amaldagi holati tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida bevosita soliqlarning buxgalteriya hisobini amaldagi holati, soliq organlarida soliqlar hisobini tashkil etish masalalari, jismoniy shaxslarning daromad soliq mexanizmini samarali shakllantirish usullari masalalari ilmiy jihatdan o‘rganilgan.

⁸ Rasm muallif tomonidan tayyorlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiysi to‘g‘risida”gi PF-5468-son Farmoni ijrosini ta‘minlash maqsadida 2020-yil 1-yanvardan “O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-599-sonli Qonunga asosan yangi tahrirdagi Soliq kodeksi kuchga kirdi. Soliq kodeksining 17-moddasiga asosan 9 ta soliq turlari belgilandi. Yangi tahrirdagi Soliq kodeksining kuchga kirishi bilan 20 yil davomida foydalanib kelingan yagona ijtimoiy to‘lov o‘rniga ijtimoiy soliq joriy etildi. Ijtimoiy soliq iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra bevosita soliq bo‘lib, Soliq kodeksining 402-409-moddalariga muvofiq hisob kitobi amaldaga oshiriladi. Bizga ma’lumki korxonalari O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (21-son BHMS) “Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliya-xo‘jalik faoliyati buxgalteriya hisobi schotlari rejasidagi foydalangan holda yagona ijtimoiy to‘lovlar hisob-kitobini **6520-“Maqsadli davlat jamg‘armalariga to‘lovlar”** hisobvarag‘i krediti, xarajatlarni hisobga olish hisobvaraqlarning (2000, 2300, 2500, 2600, 2700, 9400) debetida 2020-yil 1-yanvargacha qo‘llab kelgan edi. Yagona ijtimoiy to‘lovlar bekor qilinib **ijtimoy soliq** joriy qilinishi natijasida korxonalarda buxgalteriya hisobining ikki yoqlama yozuv metodi tartibi bo‘zilishiga olib keldi. Ya’ni moliyaviy hisobotning buxgalteriya balans hisobot shaklida korxonaning soliqlar bo‘yicha majburiyatlar respublika budgetga hamda maqsadli jamg‘armalarga qancha bor yo‘qligi hisob-kitobi yo‘qoldi.

Buxgalteriya hisobi usullardan biri bu **hisobvaraqlar va ikki yoqlama yozuv usuli**. Ushbu buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar va ikki yoqlama yozuv metodi bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi. Buxgalteriya hisobi hisobvaraqlari - bu korxona mablag‘lari, ularning tashkil topish manbalari va xo‘jalik jarayonlarini guruhlash, joriy tartibda aks ettirish va nazorat qilish usulidir. Xo‘jalik muomalasini buxgalteriya hisobvaraqlarida aks ettirish ikkiyoqlama yozuv usuli yordamida amalga oshiriladi. Masalan, soliqlar budgetga to‘lovlar bo‘yicha qarzlarga hisoblangan majburiyatlar xo‘jalik muomalasi bir tomonidan soliqlar bo‘yicha majburiyatlar ko‘paytirsa, ikkinchi tomonidan hisobga oluvchi hisobvaraqlari ko‘paytirshiga olib keladi. Korxonalarda bu muomala aks ettirilganda soliq turlari bo‘yicha majburiyatning kamamyishi hisoblangan soliqlarni soliq organlariga to‘langan pul mablag‘larining chiqimi bo‘yicha ko‘rsatkichlar o‘zaro bog‘lanadi.

Korxonalar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini xarajat sifatida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan “Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida”gi NIZOMga asosan mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar tarkibi hamda davr xarajatlarida xodimlarga hisoblangan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar ichida hisobga olingan xolatda xarajat sifatida ko‘rinadi.

2-jadvalda “O‘zbekneftgaz” AJning 2021-2023-yillari uchun “Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisoboti” hamda 2019-2023-yillari uchun 2-sonli shakli

hisoboti tahlili keltirilgan. “O‘zbekneftgaz” AJni mahsulot (tovar, ish xizmat)larini sotishdan sof tushumi 2021-yilda 12 426 519 mln, so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilda 13 254 871 mln, so‘mni tashkil etgan, 2023-yilda esa 14 744 749 mln, so‘mni tashkil etgan. Sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat)larning tannarxi 2021-yilda 4 935 746 mln, so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2022 yilda 8 571 795 mln, so‘mni tashkil etgan, 2022 yilda esa 11 659 763 mln. so‘mni tashkil etgan. “O‘zbekneftgaz” AJni davr xarajatlari 2021 yilda 4 451 154 mln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilda 4 746 212 mln, so‘mni tashkil etgan, 2023 yilda esa 5 310 280 mln, so‘mni tashkil etgan. Mahsulot (tovar, ish xizmat)larini sotishning yalpi foydasi 2021-yilda 7 490 773 mln, so‘mni tashkil etgan bo‘lsa 2022-yilda 4 683 075 mln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilda 3 084 986 mln, so‘mni tashkil etgan. Asosiy faoliyatning foydasi (zarari) 2021 yilda 3 744 442 mln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilda 622 990 mln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilda 217 896 mln so‘mni tashkil etgan. “O‘zbekneftgaz” AJning moliyaviy faoliyatining daromadlar qismiga qaraydigan bo‘lsak, 2021-yilda 1 564 621 mln so‘mni tashkil etgan, 2022-yilda 4 333 489 mln so‘mni tashkil etgan, 2023-yilda esa moliyaviy faoliyatining daromadlari 5 584 921 mln so‘mni tashkil etgan. Moliyaiy foliyatning boshqa xarajatlari esa, 2021 yilda 1 478 540 mln so‘mni tashkil etgan, 2022-yilda 3 666 270 mln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilda 5 191 259 mln so‘mni tashkil etgan. Aksiyadorlik jamiyatining umumxo‘jalik faoliyatining foydasi (zarari) 2021-yilda 3 830 523 mln. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilda 1 290 209 mln, so‘mni tashkil etgan, 2023-yilda esa 611 557 mln, so‘mni tashkil etgan.

Soliq xizmati organlari tomonidan o‘z vakolatlari doirasida qabul qilingan qarorlar davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, boshqa tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari, shuningdek, soliq to‘lovchilar, shu jumladan yuridik va jismoniy shaxslarning ijro etishi uchun majburiy hisoblanib, o‘z faoliyatini qonun hujjalariiga muvofiq amalga oshiradi. Budget tasnifi budget tizimi budgetlarining daromadlari va xarajatlarini, shuningdek Davlat budgeti taqchilligini qoplash manbalarining guruhlanishi bo‘lib, quyidagilarni o‘z ichiga oladi: budget tizimi budgetlari daromadlarining tasnifi, budget tizimi budgetlari xarajatlarining tasnifi, davlat budgeti taqchilligini qoplash manbalari tasnifi. Budget tasnifi budget tizimi budgetlarini shakllantirish, tuzish hamda ijro etishni tizimlashtirish uchun foydalilanadi va u budget ma’lumotlari xalqaro tasnif tizimlarining aynan shunday ma’lumotlari bilan qiyoslanishini ta’minlaydi. Budget tizimi budgetlari daromadlarining tasnifi daromadlarni ularning turlari va manbalari bo‘yicha kodlashdan iborat bo‘ladi. Yigirma bir koddan iborat bo‘lgan daromadlar tasnifi tuzilmasi to‘rt qisqli ko‘rinishga egadir.

O‘zbekistonda bozor iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy islohotlarga mos ravishda soliq tizimida chuqur o‘ylangan chora tadbirlar, shu jumladan, jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortishda qator ijobiyl o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ma’lumki, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i O‘zbekiston Respublikasining 1991-yil 15-fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolaridan, ajnabiy fuqarolardan va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslardan olinadigan

2-jadval

“O‘zbekneftgaz” AJning 2021-2023-yillardagi “Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot” 2-sonli shakli tahlili⁹

mln. so‘mda

Ko‘rsatkichlar nomi	2021-yil		2022-yil		2023-yil	
	Daromadlar (foyda)	Xarajatlar (zararlar)	Daromadlar (foyda)	Xarajatlar (zararlar)	Daromadlar (foyda)	Xarajatlar (zararlar)
1	2	3	4	5	6	7
Mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishdan sof tushum	12 426 519	x	13 254 871	x	14 744 749	x
Sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat) larning tannarxi	x	4 935 746	x	8 571 795	x	11 659 763
Mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishning yalpi foydasi (zarari) (satr.010-020)	7 490 773	0	4 683 075	0	3 084 986	0
Davr xarajatlari, jami (satr.050+060+070+080), shu jumladan:	x	4 451 154	x	4 746 212	x	5 310 280
Sotish xarajatlari	x	166 144	x	314 981	x	396 481
Ma’muriy xarajatlari	x	292 079	x	343 265	x	453 880
Boshqa operatsiya xarajatlari	x	3 992 931	x	4 087 966	x	4 459 921
Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari	704 824	x	686 127	x	2 443 191	x
Asosiy faoliyatning foydasi (zarari) (satr. 030-040+090)	3 744 442	0	622 990	0	217 896	0
Moliyaviy faoliyatning daromadlari, jami (satr.120+130+140+150+160), shu jumladan:	1 564 621	x	4 333 489	x	5 584 921	x
Dividendlar shaklidagi daromadlar	12 419	x	1 190 943	x	2 495 259	x
Foizlar shaklidagi daromadlar	400 275	x	417 400	x	441 121	x
Moliyaviy ijara dan daromadlar		x		x		x
Valyuta kursi farqidan daromadlar	1 057 178	x	2 725 146	x	2 648 540	x
Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari	94 749	x		x		x
Moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlari (satr.180+190+200+210), shu jumladan:	x	1 478 540	x	3 666 270	x	5 191 259
Foizlar shaklidagi xarajatlari		247 776		734 138		1 419 716
Moliyaviy ijara bo‘yicha foizlar shaklidagi xarajatlari	x		x		x	
Valyuta kursi farqidan zararlar	x	1 230 702	x	2 932 131	x	3 771 543
Moliyaviy faoliyat bo‘yicha boshqa xarajatlari	x	63	x		x	
Ummumxo‘jalik faoliyatining foydasi (zarari) (satr.100+110-170)	3 830 523	0	1 290 209	0	611 557	0
Favquloddagi foyda va zararlar						
Foyda solig‘ini to‘lagunga qadar foyda (zarar) (satr.220+/-230)	3 830 523	0	1 290 209	0	611 557	0
Foyda solig‘i	x	481 730	x		x	
Foydadan boshqa soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar	x		x		x	
Hisobot davrining sof foydasi (zarari) (satr.240-250-260)	3 348 793	0	1 290 209	0	611 557	0

⁹ “O‘zbekneftgaz” AJ ma’lumotlari asosida mualliflar tomonidan tayyorlangan.

daromad solig'i to'g'risida"gi 227-XII-sonli Qonuniga muvofiq 1991-yil 1-apreldan joriy etilgan.

Soliq tizimi O'zbekiston Respublikasining butun hududida barcha soliq to'lovchilarga nisbatan yagona ekanligi belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 8-moddasiga ko'ra, hech kimga Soliq kodeksida nazarda tutilmagan yoxud uning normalari buzilgan holda belgilangan soliqlar va yig'implarni to'lash majburiyati yuklatilishi mumkin emasligi belgilab qo'yilgan.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i 2019-yilgacha progressiv soliq hisoblangan bo'lsa, hozirgi kunda qat'iy belgilangan tizimga o'tgan.

3-jadval

2003-2024-yillarda O'zbekiston Respublikasida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalari¹⁰

foizda

Eng kam oylik ish haqi darjası	2003-yil	2004-2005-yil	2006-yil	2007-2008-yil	2009-yil	2010-yil	2011-yil	2012-yil	2013-yil	2014-yil	2015-yil	2016-yil	2017-yil	2018-yil	2019-2024 yil
1 baravari										0	0	0	0		
2 baravari															
3 baravari	13	13	13	13	12	11	10	9	8	7,5	8,5	7,5	7,5	7,5	
4 baravari															
5 baravari															
6 baravari															
7 baravari															
8 baravari															
8 baravari-dan yuqori	22	21	20	18	17	17	16	16	16	16	17	17	17	17	12
9 baravari															
10 baravari															
10 baravaridan yuqori	32	30	29	25	22	22	22	22	22	22	23	23	23	23	

Soliq qonunchiligidagi binoan 2003-2018-yillar respublikamizda jismoniy shaxslarning ish haqlari, mukofot pullari va boshqa daromadlaridan soliq undirishda soliq shkalalarining joriy qilinishi progressiv formasini ko'rib o'tmoqchimiz.

3-jadval malumotlarini tahlil qilar ekanmiz, soliq qonunchiligidagi binoan 2003 yilda respublikamizda jismoniy shaxslarning ish haqlari, mukofot pullari va boshqa daromadlaridan soliq stavkasi 12, 25, 36 foizni tashkil etgan holda 2014- yilgacha 3 pog'anali stavka saqlab qolingga. 2015-2018-yillarda 4 pog'onali stavkada 0, 8,5, 17, 23 foizli soliqlar undirilgan.

Davlat soliqlar yordamida fuqarolarning daromadlari va turmush darajasini tartibga solib turadi. Ushbu ta'sirning qanchalik darajada bo'lishi jismoniy

¹⁰ Jadval O'zbekiston Respublikasi Iqisodiyot va moliya vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasiga ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

shaxslarning daromadlarini legallashtirishni, xususiy tadbirkorlikka bo‘lgan qiziqishlarni va mulkning qaysi holatda saqlanishini belgilab beradi. Jahon amaliyoti ko‘rsatishicha, agar ta’sir darajasi ham, soliq yuki ham yuqori bo‘lsa daromadlarni ko‘proq yashirishga moyillik ortadi, daromad olishga bo‘lgan qiziqishlar bir muncha so‘nadi, aksincha, soliq yuki kam bo‘lsa aks holat yuz beradi.

Dissertatsiyaning **“Bevosita soliklarni budgetga undirish mexanizmining amaldagi holati tahlili”** nomli uchinchi bobida davlat budgetiga soliq tushumlarining barqarorligini ta’minlashda foyda solig‘i mexanizmi tahlili, jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortishning amaldagi holati tahlili, aylanmadan olinadigan soliqni hisoblash va undirish mexanizmi tahlili yoritib berilgan.

Foyda solig‘i iqtisodiy-moliyaviy kategoriya sifatida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlashda, shu jumladan iqtisodiy o‘sishni ta’minlash omili sifatida foydalanimlib kelinmoqda. U mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollarini aniq belgilash va unga qaratilgan vazifalar doirasida ishlab chiqiladigan strategiyalarni amalga oshirish samaradorligini ta’minlashda qulay shart-sharoit yaratib berishda o‘z aksini topmoqda. Shu bois, foyda solig‘i boshqa soliq turlari kabi xo‘jalik subyektlari doirasida bo‘ladigan moliyaviy munosabatlarda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa, bir tomonidan, davlat manfaatlarini, ikkinchi tomonidan, barcha korxonalar manfaatlarini himoyalashda, shuningdek, iqtisodiyotning rivojlanishi uchun xizmat qilishda ham qo‘l kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoev ta’kidlab o‘tganidek, soliq siyosatini takomillashtirish doirasida soliq yukini izchillik bilan kamaytirish, soliq solish tizimini soddalashtirish va soliq ma’muriyatichilagini takomillashtirish iqtisodiyotni jadal rivojlantirish hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini yaxshilashning eng muhim shartlari hisoblanadi¹¹. Soliq siyosatini takomillashtirishda esa foyda solig‘ining xo‘jalik subyektlari faoiyatiga ta’sirini optimallashtirish dolzarb masala hisoblanadi.

Soliq yuki va foyda solig‘i stavkasini pasaytirish hisobiga O‘zbekiston Respublikasida soliq bazasi kengaymoqda hamda foyda solig‘i to‘lovchilari soni oshib bormoqda. Mamalakatimizda oxirgi besh yilgi foyda solig‘i to‘lovchilar soni tahlili qiladigan bo‘lsak, 2019-yilda 61 574 ta, 2020 yilda 120 671 ta, 2021-yilda 143 701 ta, 2022-yilda 165 182 ta hamda 2023-yilda 190 272 ta korxonalar foyda solig‘i to‘lovchi bo‘lib hisoblangan.

O‘zbekiston Respublikasida foyda solig‘ining stavkasi yillar kesimida qaraydigan bo‘lsak 1997-yilda 36,0 foiz bo‘lgan bo‘lsa, 2000-yilda 31,0 foiz, 2005-yilda 15,0 foiz, 2010-yilda 9,0 foiz, 2015 va undan keyingi yillarda 7,5 foiz bo‘lgan bo‘lsa, 2019-yil 1-yanvardan boshlab foyda solig‘i stavkasi 14 foizdan 12 foizga pasaytirildi. 2020 - 2024 yillarda bu ko‘rsatkich 15,0 foizni tashkil etgan.

O‘zbekiston Respublikasida foyda solig‘i bo‘yicha tushum yildan yilga oshib bormoqda (4-jadval).

¹¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiysi to‘g‘risida”gi PF-5468-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/3802378>

4-jadval

O‘zbekiston Respublikasida 2019-2023-yillarda foyda solig‘i tushumi va uning ulushi tahlili¹²

Ko‘rsatkichlar	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	mlrd.so‘mda
YaIM miqdori	532 712,5	605 514,9	738 425,2	896 617,9	1 066 569,0	
Davlat budgeti daromadlari	112 165,4	132 938,0	164 799,0	202 043,0	231 721,0	
Bevosita soliqlar	31 676,8	45 206,9	58 930,0	64 447,0	73 104,0	
Foyda solig‘i tushumi	16 360,6	28 712,3	38 363,0	37 650,0	40 779,0	
Foyda solig‘ining YaIMdagi ulushi, %	3,1	4,7	5,2	4,2	3,8	
Foyda solig‘ining Davlat budgeti daromadlaridagi ulushi, %	14,6	21,6	23,3	18,6	17,6	
Foyda solig‘ining bevosita soliqlar tarkibidagi ulushi, %	51,6	63,5	65,1	58,4	55,8	

4-jadval ma’lumotlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, 2019-2022-yillarda O‘zbekistonda YaIM miqdori – 532 712,5 mlrd. so‘mdan 1 066 569,0 mlrd. so‘mga, Davlat budgeti daromadlari miqdori – 112 165,4 mlrd. so‘mdan 231 721,0 mlrd.so‘mga, bevosita soliqlar miqdori – 31 676,8 mlrd. so‘mdan 73 104,0 mlrd.so‘mga, foyda solig‘i miqdori – 16 360,6 mlrd. so‘mdan 40 779,0mlrd.so‘mga oshgan. Mazkur davrda foyda solig‘ining YaIMdagi ulushi – 3,1 foizdan 4,8 foizga, Davlat budgeti daromadlaridagi ulushi – 14,6 foizdan 17,6 foizga, bevosita soliqlar tarkibidagi ulushi – 51,6,4 foizdan 55,8 foizga o‘sgan. 2023 yilda foyda solig‘i bo‘yicha tushumlar 40,8 trln.so‘mni tashkil etib, 2022 yilga nisbatan 3,1 trln.so‘mga yoki 8,0 foizga oshgan.

5-jadvalda “O‘zbekneftgaz” AJning 2019-2023-yillari uchun “Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i hisob-kitobi” hisoboti tahlili keltirilgan. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi asosida amaldagi barcha soliq turlari bo‘yicha soliq hisoboti shakllari O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining 2020-yil 28-yanvardagi 2020-03-sonli “Soliq hisobotining shakllarini tasdiqlash to‘g‘risida” gi qarori asosida tasdiqlangan. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining “Soliq hisobotining shakllarini tasdiqlash to‘g‘risida” gi qarorning 1 — 9-ilovalariga o‘zgartirishlar kiritish haqida” gi qarori O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2023-yil 24-iyuda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami – 3221-5-soni bilan qo‘srimcha va o‘zgartirishlar kiritildi.

¹² Jadval O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

5-jadval
“O‘zbekneftgaz” AJning 2019-2023-yillar uchun “Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i hisob-kitobi” tahlili¹³

mln. so‘mda

Ko‘rsatkichlar	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
Jami daromadlar (Hisob-kitobning 1-ilovasi 010-satri – 110-satri – 121-satri - 131-satri - 150-satri)	7 444 140	15 484 217	14 695 724	17 097 632	20 277 602
Chegiriladigan xarajatlar (Hisob-kitobning 2-ilovasi 010-satri 3-ustun - 4-ustun)	7 263 383	12 164 600	10 757 394	17 899 369	22 161 305
Soliq solinadigan foyda (010-satr - 020-satr)	180 758	3 319 617	3 938 330	-801 737	-1 883 702
Imtiyozlar - jami (Hisob-kitobning 4-ilovasi 030-satri)	3 615	833 224	726 796	0	0
Nol stavka qo‘llaniladigan soliq to‘lovchilar foydasi (Hisob-kitobning 5-ilovasi 030-satri)	0	0	0	0	0
Soliq bazasi (030-satr – 040-satr - 050-satr), biroq “0” dan kam emas	177 143	2 486 393	3 211 535	0	0
Foyda solig‘ining belgilangan stavkasi, foizda	14	15	15	15	15
Nogironligi bo‘lgan shaxslar mehnatidan foydalananayotgan yuridik shaxslar uchun tuzatilgan soliq stavkasi	12	15	15	15	15
Foyda solig‘i summasi – jami (060-satr x 070-satr yoki 060-satr x 071-satr)	21 257	372 959	481 730	0	0
Ushbu hisobot davrida hisoblangan jami oylik bo‘nak to‘lovlar					
Doimiy muassasa sifatida hisobga qo‘yilgunga qadar to‘lov manbaida ushlab qolining foyda solig‘i summasi	21 257	372 959	481 730	0	0

5-jadvalga qaraydigan bo‘lsak 2019-yilda korxonaning jami daromadi 744 4140 mln, so‘mni tashkil etgan bo‘lsa uning chegiriladigan xarajatlari, 7 263 383 mln, so‘mni tashkil etgan bo‘lib soliq solinadigan foydasi 180 758 mln so‘mni tashkil etgan. Foyda soliqdan imtiyozlari 3 615 mln so‘mni tashkil etgan bo‘lib, foyda solig‘i bazasi esa 177 143 mln so‘m takshil etgan, “O‘zbekneftgaz” AJ korxonasiga 2019-yilda 21 257 mln so‘mlik foyda solig‘i hisoblangan.

2020-yilda aksiyadorlik jamiyatini jami daromadlari 15 484 217 mln, so‘mni tashkil etgan bo‘lsa uning chegiriladigan xarajatlari 12 164 600 mln, so‘mni tashkil etgan. Soliq solinadigan foydasi esa 3 319 617 mln, so‘mni tashkil etgan bo‘lib foyda solig‘iga 833 224 mln, so‘mlik imtiyozlar qo‘llagan bo‘lib, foyda soliq bazasi 2 486 393 mln so‘mni tashkil etgan. 2020-yilda “O‘zbekneftgaz” AJni korxonasi 372 959 mln, so‘mlik foyda solig‘i hisoblangan. 2021-yilda “O‘zbekneftgaz” AJni korxonasingning jami daromadlari 14 695 724 mln, so‘mni tashkil etgan bo‘lsa uning chegiriladigan xarajatlari 10 757 394 mln, so‘mni tashkil etgan. Soliq solinadigan foydasi esa 3 938 330 mln, so‘mni tashkil etgan bo‘lib foyda solig‘iga 726 796 mln, so‘mlik imtiyozlar qo‘llagan bo‘lib, foyda soliq bazasi 3 211 535 mln so‘mni tashkil etgan. 2021-yilda O‘zbekneftgaz” AJni korxonasiga 481 730 mln, so‘mlik foyda solig‘i hisoblangan. Aksiyadorlik jamiyatining jami daromadlari 2022-yilda 17 097 632 mln, so‘mni takshil etgan bo‘lib chegiriladigan xarajatlari esa 17 899 369 mln, so‘mni tashkil etgan bo‘lib uning chegiriladigan xarajatlari hisobiga

¹³ “O‘zbekneftgaz” AJ ma’lumotlari asosida mualliflar tomonidan tayyorlangan.

2022 yilda soliq solinadigan foydasi -801 737 mln, so‘mga kaytirilgan. 2023-yilda “O‘zbekneftgaz” AJni korxonasing jami daromadlari 20 277 602 mln, so‘mni takshil etgan bo‘lib chegiriladigan xarajatlari esa 22 161 305 mln, so‘mni tashkil etgan bo‘lib uning chegiriladigan xarajatlari hisobiga 2023 yilda soliq solinadigan foydasi -1 883 702 mln, so‘mga kaytirilgan.

Chegiriladigan xarajatlar bizga ma’lumki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi “Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida” gi Nizomi 54-qaror bilan tartibga solib boriladi. Ushbu nizomga asosan O‘zbekneftgaz” AJ korxonasi 2019-2023-yillarda asosan olinishi lozim bo‘lgan (olingan) dividendlardan hamda olinishi lozim bo‘lgan (olingan) foizlarda katta miqdorda xarajatlar chegirilgan.

Foyda soliq bazasini to‘g‘ri aniqlash maqsadida “Foyda solig‘i bo‘yicha soliq hisoboti shakllari” hisobotidagi elementlariga qo‘shimchalar kiritish uchun asosiy vosita va nomoddiy aktivlarning harakati hamda amortizatsiya xarajatlarini ko‘chmas mulk guruhlari Jumladan: 4-ilova Asosiy vositalarning amortizatsiyasi hisob-kitobi ma’lumotnomasi I-guruh-VI-guruh hamda 5-ilova Nomoddiy aktivlar amortizatsiya xarajatlarini hisob-kitobi ma’lumotnomasi I-guruh-II-guruhlarga bo‘lgan holatda soliq hisobotini yil yakuni bo‘yicha taqdim etilganda to‘ldirilishi kerakligni joriy qildik.

2019-2023-yillarda O‘zbekiston Respublikasi davlat budgetidagi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i tahlili keltirilgan (6-jadval).

6-jadval

2019-2023-yillarda O‘zbekiston Respublikasi davlat budgetidagi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i tahlili¹⁴

mlrd. so‘mda

Nomi	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i soliq to‘lovchilar soni (nafar)	4 281 732	4 686 237	4 839 512	5 054 430	5 326 631
Soliq tushumi	13 327,5	15 140,8	18 917,7	24 284,5	29 917
Soliq qarz	258,8	270,6	458,4	328,4	261,5

6-jadvalda ko‘rishimiz mumkinki jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i to‘lovchilar soni 2019-yilda 4 281 732 nafarni takshil etgan bo‘lsa 2020-yilda 4 686 237 nafarni, 2021-yilda 4 839 512 nafarni, 2022-yilda 5 054 430 nafarni hamda 2023-yilda 5 321 825 nafarni tashkil etgan.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini davlat budgetidagi qarzi 2019-yilda 258,8 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa 2020-yilda 270,6 mlrd so‘m, 2021-yilda 458,4 mlrd so‘m, 2022-yilda 328,4 mlrd so‘m, 2023-yil yakuni bo‘yicha 261,5 mlrd so‘mlik qarzdorlik mavjud bo‘lgan.

¹⁴ Jadval O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining¹⁵ 461-moddasiga asosan aylanmadan olinadigan soliqni to‘lovchilar soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan jami daromadi bir milliard so‘mdan oshmagan O‘zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari hamda soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadi yuz million so‘mdan oshgan, lekin bir milliard so‘mgacha bo‘lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar hisoblanadi.

Aylanmadan olinadigan soliq stavkalari soliq to‘lovchilarning barcha toifalari uchun 2023-yildan 4 foiz miqdoridagi yagona stavkani belgilagan holda bixillashtirildi.

Bunda soliq to‘lovchining joylashgan joyi, aholi soni va faoliyat turiga bog‘liq holda pasaytirilgan soliq stavkalari saqlab qolindi. Natijada aylanmadan olinadigan soliq to‘lovchi tadbirkorlar ixtiyorida 2023-yilda qarib 178,4 mlrd.so‘m mablag‘ qoladigan bo‘ldi. 2023-yildan boshlab aylanmadan olinadigan soliq to‘lovchilar ixtiyoriy asosda qat’iy belgilangan miqdorda soliq to‘lashni tanlashga haqli. Bunda jami daromad summasi 500 million so‘mdan oshmaganda yiliga 20 million so‘m qat’iy belgilangan miqdordagi soliqni, jami daromad summasi 500 million so‘mdan oshganda esa yiliga 30 million so‘m to‘lashni tanlash huquqi berilgan. Qat’iy belgilangan summadagi soliq teng ulushlarda har oyda, kalendar oydan keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmay to‘lanadi. Aylanmadan olinadigan soliq hisobot shaklini to‘ldirish va yuborish my.soliq.uz yoki hisobot.soliq.uz saytlari orqali elektron raqamli imzodan foydalangan holda amalga oshiriladi.

Bunda shaxsiy kabinetga kirgandan so‘ng yuridik shaxslarning hisobotlarini yuborish bo‘limiga o‘tiladi. Elektron shakllardan kerakli bo‘lgan aylanmadan olinadigan solig‘i hisobotlari shakli orqali aylanmadan olinadigan solig‘i hisob-kitobini tanlab olinadi. Soliq hisobot shaklida bo‘lgan yil, soliq davri, hisobot turi belgilanadi. Shundan so‘ng hisob-kitobi ko‘rsatkichlari ushbu hisob-kitob soliq to‘lovchilar tomonidan yil boshidan o‘sib boruvchi yakun bilan co‘mda to‘ldiriladi.

Aylanmadan olinadigan soliqning budget daromadidagi ulushini tahlil qiladigan bo‘lsak 2020 va 2021-yillarda 1 foiz, 2022-yilda 1,2 foizni hamda 2023-yilda 1,0 foizni tashkil etgan. (7-jadval).

7-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, ushbu soliq bo‘yicha tushum 2019-yilda O‘zbekiston Respublikasi davlat budgetiga 1 988,7 mlrd. so‘m tushumlar kelib tushgan bo‘lsa, 2023-yilda 2 407,0 mlrd. so‘mni tashkil etgan. Aylanmadan olinadigan soliq tushumining bevosita soliqlar tarkibidagi ulushi – 2019 yilda 6,3 foizni, 2020-yilda – 3,0 foizni, 2021 yilda – 2,8 foizni, 2022-yilda – 3,9 foizni hamda 2023-yilda – 3,3 foiz bo‘lgan. Aylanmadan olinadigan soliq bo‘yicha tushum va ulushning pasayishi, asosan ko‘p korxonalarining soddalashtirilgan soliq rejimidan umumbelgilangan soliq to‘lashga o‘tganligidandir.

2023-yilda aylanmadan olinadigan soliq tushumlari 2,4 trln.so‘mni tashkil etgan bo‘lib, 2022-yilga nisbatan 105, mlrd.so‘mga yoki 4 foizga kamaygan bunga sabab 2023 yil boshidan barcha toifadagi soliq to‘lovchilar uchun yagona 4 foizlik stavka, shuningdek, 4 va 5-toifaga kiritilgan hududlar uchun pasaytirilgan stavkalar

¹⁵ O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi 461-modda 2025-y.

(2023-yilda soliq tushumi 248,2 mlrd.so‘mni tashkil etib, 2022-yilga nisbatan 20,6 mlrd.so‘mga kamaygan) belgilanishi bilan asoslangan.

7-jadval

O‘zbekiston Respublikasida 2019-2023-yillarda aylanmadan olinadigan soliq tushumi va uning ulushi tahlili¹⁶

mlrd.so‘mda

Ko‘rsatkichlar	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
YaIM miqdori	532 712,5	605 514,9	738 425,2	896 617,9	1 066 569,0
Davlat budjeti daromadlari	112 165,4	132 938,0	164 799,0	202 043,0	231 721,0
Bevosita soliqlar	31 676,8	45 206,9	58 930,0	64 447,0	73 104,0
Aylanmadan olinadigan soliq tushumi	1 988,7	1 353,9	1 649,4	2 512,7	2 407,0
Aylanmadan olinadigan soliq tushumining YaIMdagi ulushi, %	0,4	0,2	0,2	0,3	0,2
Aylanmadan olinadigan soliq tushumining Davlat budjeti daromadlaridagi ulushi, %	1,8	1,0	1,0	1,2	1,0
Aylanmadan olinadigan soliq tushumining bevosita soliqlar tarkibidagi ulushi, %	6,3	3,0	2,8	3,9	3,3

Shuningdek, 2023-yil boshidan 47,2 mingta tadbirkorlik subyektlari ixtiyoriy ravshda qat’iy belgilangan so‘mmadagi soliq stavkasi bo‘yicha soliq to‘lashga o‘tib, ular quidagi yengililar berilgan:

Birinchidan moliyaviy hisobotlar va aylanmadan olinadigan soliq hisobotlarini topshirish, tovarlar hisobotini yuritish talabi bekor qilindi. Ikkinchidan dividend tarzida bank hisob varag‘idan yechib olingan mablag‘lar soliqqa tortishdan ozod etilgan.

Aylanmadan olinadigan soliq bo‘yicha Xorazm viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan “X-XIKMAT” xususiy korxonanining 2019-2023-yillar bo‘yicha soliq hisobotlari tahlil qilindi. (8-jadval).

“X-XIKMAT” xususiy korxonanining 2019-yilda aylanmadan olinadigan soliq bazasi 875 200,0 ming so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, aylanmadan olinadigan soliq summasi 43 760,0 ming so‘mni tashkil etgan. 2020 yilda xususiy korxonanining aylanmadan olinadigan soliq bazasi 449 279,7 ming so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, aylanmadan olinadigan soliq summasi 17 971,2 ming so‘mni tashkil etgan. 2021-yilda xususiy korxonanining aylanmadan olinadigan soliq bazasi 128 555,0 ming so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, aylanmadan olinadigan soliq summasi 5 142,0 ming so‘mni tashkil etgan.

¹⁶ Jadval O‘zbekiston Respublikasi Iqisodiyot va moliya vazirligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

8-jadval

“X-XIKMAT” xususiy korxonaning 2019-2023-yillar bo‘yicha aylanmadan olinadigan soliq hisoboti tahlili¹⁷

ming so‘mda

Ko‘rsatkichlar	Jami	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
1	2	3	4	5	6	7
Tovarlar (xizmatlar) ni realizatsiya qilishdan so‘f tushum (Hisob-kitobning 1-ilovasi 020-satr + 030-satr)	1 533 135,7	875 200,0	449 279,7	128 555,0	60 701,0	19 400,0
Faoliyat turlari bo‘yicha daromadning tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan jami daromadlaridagi salmog‘i, foizda	100,00	100,00	100,00	100,00	100,00	100,00
Boshqa daromadlar (Hisob-kitobning 1-ilovasi 040-satri - 0403-satri + 04031-satri)						
Soliq solinadigan jami daromad (010-satr + 020-satr)	1 533 135,7	875 200,0	449 279,7	128 555,0	60 701,0	19 400,0
Soliq solinadigan jami daromadning kamaytirilishi (hisob-kitobning 2-ilovasi 010-satri)						
Soliq solinadigan baza – jami (030-satr - 040-satr)	1 533 135,7	875 200,0	449 279,7	128 555,0	60 701,0	19 400,0
Soliq stavkasi, foizda	x	5,00	4,00	4,00	4,00	4,00
Tuzatish kiritilgan soliq stavkasi, foizda (Hisob-kitobning 3-ilovasining 040-satri, 050-satri yoki 120-satri)	x	5,00	4,00	4,00	4,00	4,00
Aylanmadan olinadigan soliq summasi – jami (050-satr x 061-satr), shu jumladan:	70 077,2	43 760,0	17 971,2	5 142,0	2 428,0	776,0
hisobda turgan joyi bo‘yicha (070-satr - 0701-satr)	70 077,2	43 760,0	17 971,2	5 142,0	2 428,0	776,0

2022-yilda xususiy korxonaning aylanmadan olinadigan soliq bazasi 60 701,0 ming so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, aylanmadan olinadigan soliq summasi 2 428,0 ming so‘mni tashkil etgan. 2023 yilda xususiy korxonaning aylanmadan olinadigan soliq bazasi 19 400,0 ming so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, aylanmadan olinadigan soliq summasi 776,0 ming so‘mni tashkil etgan. Xorazm viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan “X-XIKMAT” xususiy korxonasi 2019-2023-yillar davomida jami aylanmadan olinadigan soliq bazasi 1 533 135,7 ming so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, aylanmadan olinadigan soliq summasi 70 077,2 ming so‘mni tashkil etgan.


Dissertatsiyaning **“Bevosita soliqlarning soliqqa tortish metodologiyasini takomillashtirish”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida foydani soliqqa tortish metodologiyasini takomillashtirish, bevosita soliqlar hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, bevosita soliqlar tahlilida ekonometrik modellardan foydalanish masalalari ilmiy jihatdan o‘rganilgan.

Foyda solig‘i iqtisodiy-moliyaviy kategoriya sifatida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlashda, shu jumladan iqtisodiy o‘sishni ta’minlash omili sifatida

¹⁷ Jadval “X-XIKMAT” xususiy korxonaning ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

foydalanimlib kelinmoqda. U mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollarini aniq belgilash va unga qaratilgan vazifalar doirasida ishlab chiqiladigan strategiyalarni amalga oshirish samaradorligini ta'minlashda qulay shart-sharoit yaratib berishda o‘z aksini topmoqda. Shu bois, foyda solig‘i boshqa soliq turlari kabi xo‘jalik subyektlari doirasida bo‘ladigan moliyaviy munosabatlarda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa, bir tomonidan, davlat manfaatlarini, ikkinchi tomonidan, barcha korxonalar manfaatlarini himoyalashda, shuningdek, iqtisodiyotning rivojlanishi uchun xizmat qilishda ham qo‘l kelmoqda.

Foyda solig‘ining stavkasi yillar kesimida tahlil qiladigan bo‘lsak (3-rasm), 1997-yilda 36,0 foiz bo‘lgan bo‘lsa, 2000-yilda 31,0 foiz, 2005-yilda 15,0 foiz, 2010 yilda 9,0 foiz, 2015 va undan keyingi yillarda 7,5 foiz bo‘lgan bo‘lsa, 2019-yil 1 yanvardan boshlab foyda solig‘i stavkasi 14 foizdan 12 foizga pasaytirildi. 2020 – 2024-yillarda bu ko‘rsatkich 15,0 foizni tashkil etdi.



3-rasm. O‘zbekiston Respublikasida 1997-2024-yillarda yuridik shaxslar uchun foyda solig‘i stavkasining o‘zgarish tendensiyasi¹⁸

Jahon mamlakatlari mamlakat budjetini shakllantirish xususiyatlaridan kelib o‘ziga xos soliq stavkalarini belgilab qo‘yadilar. Ayrim davlatlar tadbirkorlarni ko‘paytirish va ularni rag‘batlantirish nuqtai-nazaridan soliq stavkalarini pasaytirsalar, ba’zi davlatlar davlat budjetini to‘ldirish maqsadida soliqlarni oshirishga harakat qiladilar. 2022-yilda 2021-yilga nisbatan bir qator mamlakatlar korporativ soliq stavkalarini o‘zgartirdilar (9-jadvalga qaralsin). Aksariyat mamlakatlar korporativ soliq stavkalarini pasaytirishga harakat qildilar.

¹⁸ Rasm O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayёрланган.

9-jadval
2022-2023-yillarda ayrim jahon mamlakatlarida korporativ soliq stavkalari
o‘zgarishi¹⁹

foizda

Mamlakat	2022-yil	2023-yil	2022 yilda 2023-yilga nisbatan o‘zgarishi
Afrika			
Gvineya	35	25	-10,0
Marokko	31	32	+1,0
Osiyo			
Bangladesh	30	27,5	-2,5
Yevropa			
Avstriya	25	24	-1,0
Belarus	18	20,0	-2,0
Buyuk Britaniya	19	25	+6
Okeaniya			
Fransiya Polineziyasi	27	25	-2,0
Janubiy Amerika			
Aruba	25	22	-3,0
Kolumbiya	30	28	-2,0

9-jadvaldan ko‘rinadiki, korporativ soliq stavkasi 2023-yilda yuqori o‘sishi Buyuk Britaniyada (6 foizga oshgan) va yuqori pasayishi 2023-yilda Gvineyada (10,0 foizga pasaygan) va Arubada (3,0 foizga pasaygan) ko‘rish mumkin. Albatta, mamlakatlar korporativ soliq bo‘yicha stavkalarning o‘zgarishini o‘z soliq siyosatlari va mamlakatdagi ichki vaziyatdan kelib chiqqan holda o‘zgartirishga harakat qiladilar. Ushbu mamlakatlar korporatsiyalar olayotgan foydaning sezilarli qismi davlat budgetiga tushishini nazarda tutadi.

10-jadval
2023-yilda Jahonda yuqori korporatsiya solig‘i stavkasiga ega mamlakatlar²⁰
foizda

Mamlakat	Kontinent	Soliq stavkasi
Komor orollari	Afrika	50
Peerto-Riko	Shimoliy Amerika	37,5
Surinam	Afrika	36
Argentina,	Janubiy Amerika	35
Chad, Kolumbiya, Kuba, Ekvatorial Gvineya, Malta,Sudan,	Afrika	35
Sint-Marten	Shimoliy Amerika	34,5
Amerika Samoasi	Okeaniya	34
Braziliya, Venesuela	Janubiy Amerika	34
Kamerun,	Afrika	33
Sent-Kits va Nevis	Shimoliy Amerika	33
Morokko, Mozambik, Namibiya	Afrika	32
Portugaliya	Yevropa	31,5

¹⁹ Internet resurs: <https://taxfoundation.org/data/all/global/corporate-tax-rates-by-country-2023/#Changes>. Soliq jamg‘armasi (Tax Foundation) sayti ma’lumotlari

²⁰ Internet resurs: <https://taxfoundation.org/data/all/global/corporate-tax-rates-by-country-2023/#Changes>. Soliq jamg‘armasi (Tax Foundation) sayti ma’lumotlari

Soliq siyosatlari doirasida jahon bir qator mamlakatlar yuqori soliq stavkalarini o‘rnatishga harakat qilishadi va bunda hattoki 50 foizlik soliq stavkasi amal qiluvchi davlatni ham ko‘rish mumkin (10-jadvalga qaralsin).

10-jadvalda ko‘rish mumkinki Afrika qit’asining Komor orollarida korporatsiya solig‘i 50,0 foizni tashkil etgan bo‘lsa, Shimoliy Amerika qit’asining Peerto-Riko davlatida korporatsiya solig‘i 37,5 foizni tashkil etgan bo‘lsa Yevropa qit’asining Portugaliya davlatida korporatsiya solig‘i 31,5 foizni ko‘rishimiz mumkin.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida mamlakatimizda buxgalteriya hisobini isloh qilishning muhim yo‘nalishi mahalliy korxonalar moliyaviy hisobotlarini xalqaro standartlarga uyg‘unlashtirishdir. Yangi O‘zbekiston iqtisodiyotiga investitsiyalarini kiritishga qulayliklar yaratish, shuningdek, mamlakatning iqtisodiy subyektlari faoliyatining barqarorligini ta’minlash zarur. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari shak-shubhasiz bu masalaning yechimiga olib keladi. Yangi O‘zbekistonning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi, chet el investitsiyalarini jalb etish uchun shart-sharoit yaratish uchun xalqaro iqtisodiy aloqada biznesning butun dunyoga tushunarli bo‘lgan umumjahon tilini, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini o‘rganish va undan foydalanish zarurligini taqozo etadi.

11-jadvalda “Kuchlik neft baza”MCHJning 2021-2023-yillardagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarga o‘tgan yuridik shaxslar tomonidan taqdim etiladigan alohida umumlashgan daromadlar to‘g‘risidagi ma’lumot” tahlili keltirilgan. Jadvalga qaraydigan bo‘lsak “Kuchlik neft baza”MCHJning jami uzoq muddatli aktivlari 2021-yilda 98,2 mldr so‘mni, 2022-yilda 118,6 mldr so‘mni, 2023-yilda 119,7 mldr so‘mni tashkil etgan. 2021-yilda MCHJning jami joriy aktivlar 78,5 mldr so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilda bo‘ ko‘rsatkich 77,8 mldr so‘mni tashkil etgan. 2023-yilda bo‘ ko‘rsatkich 57,5 mldr so‘mni tashkil etgan. “Kuchlik neft baza” MCHJning jami kapitali 2021-yilda 164, 1 mldr so‘mni tashkil etgan bo‘lsa 2022-yilda esa 158,9 mldr so‘mni tashkil etgan. 2023-yilda bo‘ ko‘rsatkich 150,6 mldr so‘mni tashkil etgan. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarga o‘tgan korxonaning 2021-yildagi jami majburiyatlari 12,5 mldr so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilda bo‘ ko‘rsatkich 37,4 mldr so‘mni tashkil etgan. 2023-yilda bo‘ ko‘rsatkich 26,3 mldr so‘mni tashkil etgan.

Xalqaro buxgalteriya standartlarining ijobiy xususiyatlarini ko‘rib chiqsak. Birinchidan, ularning alohida mamlakatlarda milliy standartlarga nisbatan obyektiv afzalliklari:

Potensial xorijiy investorlarning ishonchini oshirishga chaqirish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur ma’lumotlarni olish imkoniyati, hisobotning boshqa korxonalar bilan taqqoslanishini ta’minlash, xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb qilish, tashqi bozorlarga chiqish imkoniyati, axborotning ishonchliligi,Uni tuzish qoidalariga rioya qilish bilan ta’minlanadigan axborotning shaffofligi, shuningdek, unga ko‘plab tushuntirishlar mavjudligidir. Shu bilan birga, buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari nafaqat kompaniyalarning moliyaviy hisobotlarini tayyorlashda, ayniqsa turli mamlakatlarda faoliyat yuritayotgan korxonalarining moliyaviy hisobotlarini birlashtirish sharoitida xarajatlarni

kamaytirishga, balki kapitalni jalg qilish xarajatlarini kamaytirishga imkon beradi deb hisoblaymiz.

11-jadval

“Kuchlik neft baza” MCHJning 2021-2023-yillardagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarga o‘tgan yuridik shaxslar tomonidan taqdim etiladigan alohida umumlashgan daromadlar to‘g‘risidagi ma’lumot” tahlili²¹

ming so‘mda

Ko‘rsatkichlar nomi	31.12.2021-yil holatiga	31.12.2022-yil holatiga	31.12.2023-yil holatiga
1	2	3	4
Aktivlar			
Uzoq muddatli aktivlar	x	x	x
Asosiy vositalar	27 501 499,00	23 910 287,00	30 511 558,00
Gudvil			
Boshqa nomoddiy aktivlar	731 500,00	731 500,00	731 500,00
.....			
Boshqa uzoq muddatli aktivlar	18 751 839,00	24 164 600,00	18 729 668,00
Jami uzoq muddatli aktivlar (satr.010+020+030+040+050+060+070+080+090)	98 158 360,00	118 554 674,00	119 721 013,00
Joriy aktivlar	x	x	x
Biologik aktivlar			
Tovar moddiy zaxiralar	27 632 929,00	18 623 968,00	18 002 913,00
Savdo debitorlari va bo‘naklar	49 098 487,00	46 676 035,00	38 589 279,00
Boshqa qisqa muddatli moliyaviy aktivlar			
Sotish uchun mo‘ljallangan uzoq muddatli aktivlar			
Qisqa muddatli investitsiyalar			
Pul mablag‘lari va ekvivalentlari	1 766 595,00	12 479 815,00	912 819,00
Jami joriy aktivlar (satr.110+120+130+140+150+160+170)	78 498 011,00	77 779 818,00	57 505 011,00
Jami aktivlar (satr.100+180)	176 656 371,00	196 334 492,00	177 226 024,00
Kapital va majburiyatlar	x	x	x
Kapital	x	x	x
Ustav kapitali	45 630 389,00	45 630 389,00	45 630 389,00
Qo‘shilgan kapital			
Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)	102 897 898,00	99 195 521,00	90 737 864,00
Qayta baholash bo‘yicha rezerv	15 602 964,00	14 095 523,00	14 227 582,00
Boshqa rezervlar			
Nazorat qilinmaydigan ulushlar			
Jami kapital (satr.200+210+220+230+240+250)	164 131 251,00	158 921 433,00	150 595 835,00
Majburiyatlar	x	x	x
Uzoq muddatli majburiyatlar	x	x	x
.....			
Jami uzoq muddatli majburiyatlar (satr.270+280+290+300+310+320)			
Joriy majburiyatlar	x	x	x
Savdo va boshqa kreditor qarzdorliklar	5 221 856,00	20 950 220,00	18 486 830,00
Olingan bo‘naklar	5 658 408,00	5 117 492,00	5 070 204,00
Rezervlar			
Soliq majburiyatları (Foyda solig‘idan tashqari)	1 041 178,00	10 523 882,00	540 768,00
Foyda solig‘i bo‘yicha majburiyatlar			
Mehnatga haq to‘lash bo‘yicha qarz	24 329,00	479,00	1 696 738,00
.....			
Boshqa joriy majburiyatlar	579 349,00	820 986,00	835 649,00
Jami joriy majburiyatlar (satr.340+350+360+370+380+390+400+410+420)	12 525 120,00	37 413 059,00	26 630 189,00
Jami majburiyatlar (satr.330+430)	12 525 120,00	37 413 059,00	26 630 189,00
Jami kapital va majburiyatlar (satr.260+440)	176 656 371,00	196 334 492,00	177 226 024,00

Raqamli iqtisodiyot sharoitda iqtisodiyotning barcha sohalari (iqtisodiyot, moliya, boshqaruv, bank, sug‘urta, marketing, birja, hisob, audit, soliq va boshqa

²¹ “Kuchlik neft baza” MCHJ ma’lumotlari asosida mualliflar tomonidan tayyorlangan.

shu kabi sohalar) mutaxassislaridan ish yuritishning zamonaviy usullarini qo'llashni, jahon iqtisodiyoti yutuqlarini bilishni va ularni rivojlantirishga ilmiy yondashishni talab qiladi.

Ekonometrik modellarni soliq sohasida foydalanish bu – o'rganilayotgan soliqqa tortish jarayonni modellashtirish va olingan modelga matematik tadqiqot usulini qo'llashdir. Ushbu yondashuv boshqa obyektlar (davlat budgetiga soliq turlari bo'yicha tushumlari) bilan aloqalar hamda munosabatlarni hisobga olishni, soliq to'lovchilarning tizimli faoliyatining miqdoriy ko'rsatkichlarini aks ettiruvchi matematik modellarni ishlab chiqish va hisoblash talab qiladi. Modellashtirish – bu eng avvalo har bir tadqiqotchining qiziqtirgan muammolarni shakllantirish va hal qilishdan iborat deb hisoblaymiz.

Bevosita soliqlarning umumiyligi soliq tushumiga ta'sirini regression tahlil qilish maqsadida 2000-2023-yillar uchun soliq tushumlariga oid ma'lumotlar bazasi shakllantirildi. Erkin o'zgaruvchilarning erksiz (**to'be**) o'zgaruvchilar bilan foizdagi o'zgarishlarini tahlil qilish uchun barcha ko'rsatkichlar tabiiy logarifmlandı. **2000-2023-yillarda** O'zbekiston Respublika bo'yicha byudjet daromadlariga soliq turlari kesimida tushumlari tahlili dissertatsiya ishining **1-illovasida keltirib o'tildi. 2000-2023-yillarda** O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsuloti hamda soliq tushumlari ulushi tahlili dissertatsiya ishining **2-illovasida keltirib o'tildi.** 2000-2023-yillarda Bevosita soliq to'lovchilar soni bo'yicha budjet daromadlariga soliq turlari kesimida tushumlari tahlili dissertatsiya ishining **3-illovasida** keltirib o'tildi.

Regression tahlildan maqsad 2000-2023-yillar ma'lumotiga asoslangan holda jami soliq tushumlariga foya solig'i, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i hamda aylanmadan olinadigan soliqlar bilan qay darajada bog'liqli ekanini baholash nazarda tutilgan. Shu o'rinda bu soliqlarni to'lovchi subyektlar sonning o'zgarishining ham soliq tushumiga ta'siri ko'rsatishini inobatga olib regression tahlilga bu o'zgaruvchilarni ham qo'shishga qaror qilindi.

Dastlab kichik kvadratlar usuli (OLS)ga asoslangan oddiy chiziqli regressiya yurgazilib, quyidagi 1- tenglama asosida soliq tushumlariga foya solig'i, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i hamda aylanmadan olinadigan soliqlarining ta'siri tahlil qilindi (12-jadvalga qarang).

$$\begin{aligned}
 \ln_soliq_tushumlari = & \beta_0 \text{konstanta} & (1) \\
 & + \beta_1 \ln_daromad_soliq \\
 & + \beta_2 \ln_foyda_soliq \\
 & + \beta_3 \ln_AOS
 \end{aligned}$$

Regressiya natijalariga ko'ra 2000-2023-yillardagi ko'rsatkichlarning umumlashtirilgan bog'liqligi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tushumining 1 foizga oshishi umumiyligi soliq tushumlarida 2,5 foizga o'sishga olib kelganini, foya solig'ida 1 foizga o'sish kuzatilishi jami soliq tushumlarida 0,56 foizga o'sish kuzatilgan bo'lsa, aylanmadan olinadigan soliqlarning 1 foizga

ortishi jami soliq tushumlarining **0,12 foiz kamayishi** bilan bir vaqtda kuzatilganidan dalolat bermoqda.

12-jadval

2000-2023-yillarda O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjetining soliq tushumlarida bevosita soliqlarni asosiy erkin o‘zgaruvchilar bilan regressiya tahlili²²

OLS regressiya natijalari:


Source	SS	df	MS	Number of obs	=	24
				F (3,20)	=	64.50
Model	57.7190152	3	19.2396717	Prob >F	=	0.0000
Residual	5.96586543	20	.298293272	R- squared	=	0.9063
				Adj R-squared	=	0.8923
Total	63.6848806	23	2.768890785	Root MSE	=	.54616
<hr/>						
ln_soliq_tushumlari	Coef.	Std. Err.	t	P>[t]	[95% conf. interval]	
ln_daromad_solidg‘i	2.582456	.5326313	4.85	0.000	1.471406	3.693505
ln_foyda_solidg‘i	.5667421	.132997	4.26	0.000	.28993153	.08441689
ln_aos	-.1231027	.0866844	-1.42	0.171	-.3039232	.0577177
_cons	-33.40252	6.900957	-4.84	0.000	-47.79767	-19.00738

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solidg‘i hamda foyda solidg‘i tushumlarining ta’sir koeffisiyentlari statistik barqaror bo‘lsa, aylanmadan olinadigan soliq (**ln_aos**) koeffisiyentining ta’siri tasodifiy bo‘lish ehtimoli 17 foizga teng. Shu bilan birga 1-regression tenglama asosida qurilgan modelning maqsadga muvofiqligini belgisi hisoblangan **F-test ko‘rsatkichi 64.50** ni ko‘rsatmoqda va bu model asosida hisoblangan koeffitsiyentlarining tasodifiy kelib chiqishi nolga teng ekanidan dalolat bermoqda.

Umuman olganda bevosita soliqlarni soliqqa tortish bo‘yicha metodologiyasiga xulosa qiladigan bo‘lsak, soliqqa tortishning nazariyasi, soliqqa tortish prinsiplari, soliqqa tortishning mexanizmi, soliqqa tortish usullari va soliqqa tortish amaliyoti yig‘indisi soliqqa tortishning metodologiyasini tashkil etadi.

Xulosa qilganda **metod** - bu biron bir rejalashtirilgan ishni o‘zlashtirishga erishish usuli bo‘lib, ya’ni maqsadga yetishda muayyan to‘sinqi yengish uchun qo‘llaniladigan bilimlar majmuasi yoki ijodiy faoliyatning har qanday shakldagi yo‘li hisoblansa, **metodika** - bu biror bir rejalashtirilgan ishni bajarish, amalga oshirish, oxiriga yetkazish yoki maqsadga erishish usullarining yig‘indisi hisoblanadi. **Metodologiya** - biron bir sohada yoki yunalishda foydalilaniladigan bilish vositalari va usullarining majmuasi hamda uning ta’limoti ijodiy bilish va amaliy-o‘zgartirish faoliyatini tashkil etish vositalari, shart-sharoitlari va prinsiplarini o‘rganuvchi empirik ilmiy tadqiqotlarni anglash hisoblanadi. 4-rasmda soliqqa tortishning metodologiyasi tizimli sxemasi keltirilgan.

²² Jadval Stata 14 dasturiy ta’minotidan foydalangan holda muallif tomonidan tayyorlangan.



4-rasm. Soliqqa tortishning metodologiyasi tizimi ²³

²³ Rasm muallif tomonidan tayyorlangan.

Soliq va soliqqa tortish metodi bu — soliq mexanizmining bir elementi bo‘lib, soliq solinadigan bazasini kengaytirish maqsadida soliq stavkalarini o‘zgartirish tartibi hisoblanadi.

Dissertatsiya ishda soliqqa tortish nazariya metodologiyasi bo‘yicha bevosita va bilvosita soliqlar nisbati nazariyasi ya’ni soliqqa tortishda soliqlarni guruhlarga ajratib, ularning mohiyatini qanday tartibda shakllangaligi xorijiy hamda mamlakatimizning olimlarining qarashlar yortilib berildi. Bizning fikrimizcha bevosita soliqlar deganda – yuridik yoki jismoniy shaxslarning foydasi yoki daromadiga, mol-mulkiga, tabiiy boyliklardan qazib olganiga, foydalanganiga, ishlab chiqarganiga, ish beruvchining xodimlar mehnatiga haq to‘lashga doir xarajatlariga belgilanib, soliq to‘lovchining daromadidan yoki foydasidan bevosita davlat budgetiga yoki davlat maqsadli jamg‘armasiga to‘lanadigan majburiy beg‘araz to‘lov tushuniladi.

Soliqqa tortish prinsiplariga qaraydigan bo‘lsak majburiylik, ya’ni hamma zimmasiga yuklatilagan soliqlarni to‘lashi shartdir, aniqlik prinsipi esa soliq miqdori hamda muddatlari aniq bo‘lishi shart hisoblanadi. Adolatlilik prinsipiga qaraydigan bo‘lsak bunda dini, irqidan qa’tiy nazar soliq to‘lovchilarni kamsitilishlariga yo‘l quymaslik kerak. Shuningdek soliq tizimi yagonaligi, oshkoraliq hamda soliq to‘lovchi haqligi prezumpsiyasiga asoslanadi.

Soliqqa tortishning mexanizmi - bu mamlakatda soliq siyosati va soliq ma’muriyatichilagini amalga oshirishda qo‘llaninadigan usullar yig‘indisi bo‘lib, soliqlarni rejalashtirish, prognozlashtirish, soliqlarni tartibga solish, soliq huquqi, soliq nazorati kabi elementlarni o‘z ichiga oladi” degan ta’rifni berish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Soliqqa tortish usullari uch xil ko‘rinishda amalga oshiriladi. Kadastrli, daromad manbayidan hamda daromad egasi daromadni olganidan so‘ng (deklaratsiya buyicha) soliqqa tortish usullariga ajratiladi.

Soliqqa tortish amaliyot metodologiyasi to‘rt bosqichda amalga oshiriladi. Jumladan;

1) Qat’iy belgilangan miqdorlarda soliqqa tortish (=) har bir soliq to‘lovchi uchun soliqqa tortish qat’iy belgilangan summada bo‘ladi.

2) Proporsional (÷) har bir soliq to‘lovchi uchun soliq obyekti miqdoriga nisbatan o‘zgarmaydigan bir xil stavkada belgilanadi. (masalan; foyda solig‘i, AOS, resurs to‘lovlar va mulk solig‘i)

3) Progressiv (↑) soliq bazasi o‘sishi bilan soliq stavkasi ham oshib borish taribida bo‘ladi. (masalan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i 2019-yilgacha ushbu usulda amalga oshirilgan)

4) Regressiv (↓) soliq bazasi o‘sishi bilan soliq stavka hajmi kamayib boradi. Masalan, korxona ishlab chiqarayotgan mahsulotning umumiy hajmida eksportga chiqaradigan tovarlar hajmi 0 stavkalar qo‘llanishi misol bo‘ladi.

X U L O S A

Bevosita soliqlarning buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan izlanishlar natijasida muhim xulosa, taklif va tavsiyalar shakllantirildi.

1. Soliq ma'muriyatichilagini raqamlashtirish soliq turlari ma'muriyatichiligi va mexanizmiga ta'sir ko'rsatadi. Boshqacha aytganda, soliq ma'muriyatichilagini raqamlashtirish bevosita soliqlar bazasini aniqlash, hisoblash va byudjetga to'lash mexanizmini raqamli transformatsiya etishni talab etadi.

2. Foyda solig'ini to'lashni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatini berish shartlari asoslangan, shuningdek, mansabdar shaxs mazkur holat bo'yicha bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatidan kalendar yil davomida birinchi marta foydalanayotgan bo'lsa, unda soliq qarziga olti oy davomida foizlar ham hisoblanmasligi taklifi berilgan.

3. Aylanmadan olinadigan soliq to'lovchi buxgalteriya hisobi subyektlari tomonidan moliyaviy hisobotlarni soliq va statistika organlariga har chorakda taqdim etish talabi bekor qilish hamda aylanmadan olinadigan soliqni qat'iy belgilangan soliq stavkasi bo'yicha to'laydigan tadbirkorlik subyektlari yillik moliyaviy hisobotlarni soliq organlariga topshirish majburiyatidan ozod etish asoslandi.

4. Buxgalteriya hisobi hujjatlar qonunchilikda belgilangan muddatlar biroq hisobot yildan keyin kamida besh yil buxgalteriya hisobi subyekt ixtiyorida saqlash kerakligi, bunda 2022-yil 1-yanvardan keyin hisoblangan jismoniy shaxslarning ish haqi va boshqa daromadlari hamda ular bo'yicha hisoblangan soliq summalarini to'g'risidagi hujjatlar, davlat soliq xizmati organlariga elektron tarzda topshirilgan moliyaviy, soliq hisobotlar shuningdek soliq organining avtomatlashtirilgan axborot tizimlari orqali elektron shaklda rasmiylashtirilsa hujjatlar majburiy saqlanmaslik hamda ularni arxivga topshirilmaslik kerakligi taklifi berilgan;

5. Yuridik shaxslar ish haqi shaklidagi daromadlardan ijtimoiy soliq summasini buxgalteriya hisobini takomillashtirish maqsadida ish haqi shaklidagi daromadlardan ijtimoiy soliq summalarini xarajatlarni hisobga olishda passiv schyotning majburiyat hisobvaraqlarida to'g'ri aks ettirish lozim;

6. O'zini o'zi band qilgan shaxslarning mehnat faoliyati natijasida olingan daromadlari, shu jumladan talabalarning O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tashkilotlari hududida pulli o'quv kurslarini, sport to'garaklarini tashkil etishdan va boshqa ta'lim xizmatlarini ko'rsatishdan olingan daromadlari mehnat faoliyati natijasida yoki tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadlariga ushbu daromadlar soliq davrida yuz million so'mdan oshgan yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun belgilangan tartibda soliq solish bo'yicha takliflari berildi;

7. 2023-yil 1-yanvardan 2026-yil 1-yanvarga qadar O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi, uning hududiy bo'linmalari, "O'zbekiston Professional futbol ligasi" jamoat birlashmasi, O'zbekiston futbol hakamlari markazi va professional futbol klublari o'zi jalb qilgan chet el mutaxassislari va futbolchilarining daromadlaridan

to‘lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan ozod qilish taklifi berildi;

8. Jismoniy shaxslar tomonidan yoshidan qat‘i nazar farzandlarining respublika ta’lim tashkilotlarida ta’lim olishlari uchun yo‘naltiriladigan to‘lovlardan solinmaydigan daromadlar toifasiga kiritish asoslangan;

9. Foyda solig‘i bazasini to‘g‘ri aniqlash maqsadida asosiy vosita va nomoddiy aktivlarning harakati hamda amortizatsiya xarajatlarini ko‘chmas mulk guruhlari bo‘yicha hisobotda ko‘rsatish borasidagi taklifi asoslandi.

10. Soliq davri davomida jami daromadi bir milliard so‘mdan oshgan soliq to‘lovchilar, shu jumladan yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar va yangi ro‘yxatdan o‘tgan yakka tartibdagi tadbirdorlar jami daromadi ko‘rsatilgan miqdorga yetgan kundan e’tiboran foyda solig‘ini to‘lashga o‘tish bo‘yicha taklifi berildi.

11. 2022-yil 1-sentyabrdan so‘ng ilk marotaba foyda solig‘ini to‘lashga o‘tgan aylanmadan olinadigan soliqni to‘lovchilar – keyingi yildan boshlab bir soliq davri mobaynida, jami daromad o‘n milliard so‘mdan oshmagan bo‘lsa, yoki, 2022-yil 1-sentyabrdan keyin jami daromadi soliq davri mobaynida ilk marotaba o‘n milliard so‘mdan oshgan soliq to‘lovchilar – joriy soliq davri va keyingi soliq davri mobaynida jami daromad yuz milliard so‘mga yetgunga qadar belgilangan foyda soliq stavkasini 50 foizgacha pasaytirish huquqi berilsin degan xulosaga kelindi.

12. Foyda solig‘i bo‘yicha har oyda bo‘nak to‘lovlari to‘lashi lozim bo‘lgan tadbirdorlik subyektlari daromadlarining ruxsat etilgan miqdori 5 mlrd so‘mdan 10 mlrd so‘mgacha oshirish taklifi ishlab chiqildi;

13. Maxsulot tannarxini hisoblashda, amortizatsiya qilinadigan aktivning alohida guruhini tashkil etishi va amortizatsiya ajratmalarining har yilgi summasi, soliq to‘lovchining xohishiga ko‘ra belgilanadigan amortizatsiya normasini qo‘llash yo‘li bilan biroq to‘plangan xarajatlar summasining 33 foizidan ortiq bo‘lmagan miqdorda hisoblab chiqarilishi lozim;

14. Bevosita soliqlar buxgalteriya hisobini tashkil etishda 12,15,16,18,19 MHXSlarini qo‘llash mamlakatimizda buxgalteriya hisobini xalqaro standartlarga trasformatсиya qilishda ijobiy ahamiyatga ega bo‘lishini ta’minlaydi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

ЯНГИБОЕВ ХУСНИДДИН АБДУМАЖИТОВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ БУХГАЛТЕРСКОГО
УЧЕТА И НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ ПРЯМЫХ НАЛОГОВ**

08.00.07 - Финансы, денежное обращение и кредит

08.00.08 - Бухгалтерский учет, экономический анализ и аудит

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора экономических наук (Doctor of Science)

Тема докторской диссертации (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии под номером В2023.1.DSc/Iqt461.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-сайте Научного совета (www.tsue.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyonet.uz).

Научный консультант: Курбанов Зият Ниязович
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты: Гулямов Саидахрер Саидахмедович
доктор экономических наук, академик
Ибрагимов Абдуганор Каримович
доктор экономических наук, профессор
Аннурова Насиба Батировна
доктор экономических наук, профессор

Ведущая организация: Академия государственной политики и управления
при Президенте Узбекистана

Защита диссертации состоится на заседании Научного совета DSc.03/10.12.2019.1,16.01 при Ташкентском государственном экономическом университете «30 » 10 2025 г. в 1709. Адрес: 100063, г. Ташкент, ул. Ислама Каримова, 49. Тел.: (0 371) 232-64-21; факс: (0 371) 239-41-23.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного экономического университета (зарегистрирована под №1788). Адрес: 100063, г. Ташкент, ул. Ислама Каримова, 49. Тел.: (0371) 232-64-21; факс: (0371) 239-41-23, info@tsue.uz.

Автореферат диссертации разослан «15 » 10 2025 г.

(регистр протокола рассылки № 87 от «15 » 10 2025 г.).



С.У. Мехмонов
председатель научного совета по
присуждению ученых степеней, д.э.н.,
профессор

У.В. Гафуров
Ученый секретарь научного совета по
присуждению ученых степеней, д.э.н.,
профессор

С.К.Худайкулов
председатель Научного семинара при
Научном совете по присуждению ученых
степеней, д.э.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и необходимость темы диссертации.

Совершенствование методологии бухгалтерского учета и налогообложения прямых налогов в мировой экономике, прежде всего, является важным фактором повышения эффективности фискальной политики, обеспечения прогнозируемости налоговых поступлений и повышения финансовой прозрачности деятельности предприятий. Методологические подходы, основанные на современных бухгалтерских стандартах, гарантируют точный учет прямых налогов (налог на прибыль, налог на прибыль и др.), правильное определение налогооблагаемой базы и справедливое распределение налогового бремени. «Совершенствование стандартов бухгалтерского учета и аудита для корпоративного подоходного налога повысит финансовую прозрачность и уменьшит возможности перевода доходов в другие юрисдикции, что повысит налоговую дисциплину и эффективность поступлений»²⁴. «Стандартизированная и цифровизированная система налоговой отчетности, внедренная в Германии, значительно снизила административную нагрузку на бизнес и позволила отслеживать налоговые обязательства в режиме реального времени. Модернизация учета подоходного налога в США улучшила налоговое прогнозирование и минимизировала аудиторские споры». В то же время совершенствование методологии окажет положительное влияние на экономическую активность за счет снижения налоговых ошибок, упрощения системы аудита, адаптации к международным стандартам финансовой отчетности и повышения инвестиционной привлекательности. В результате расширяются возможности рационального использования экономических ресурсов и обеспечения стабильности государственного бюджета.

В мире проводятся важные исследования по повышению роли бюджетно-налогового механизма в обеспечении экономического развития, формированию оптимального соотношения прямых и косвенных налогов. Усиление влияния прямых налогов на доходы бюджета, стимулирование экономической активности населения и производителей, смягчение случаев неравенства, вызванных различными различиями и условиями экономической деятельности в регионах страны, экономное и эффективное использование имущества, регулирование уровня дифференциации между доходами населения, прогнозирование налоговых поступлений и повышение уровня их собираемости являются одними из направлений исследований в этой области.

В Узбекистане особое внимание уделяется повышению эффективности механизма налогообложения путем регулирования методологии бухгалтерского учета и налогообложения прямых налогов. Предпринимаются усилия по стимулированию эффективной и экономной деятельности

²⁴ Improving the accounting and auditing standards for corporate income taxation increases transparency and reduces profit-shifting opportunities, thereby enhancing tax compliance and revenue collection efficiency. OECD, 2022. Corporate Tax Statistics: Fourth Edition. Paris: OECD Publishing.

экономических субъектов, повышению заинтересованности физических и юридических лиц в увеличении доходов и прибыли, созданию гибкого механизма, стимулирующего пополнение бюджета налоговыми поступлениями. Благодаря этим усилиям важными задачами являются эффективная организация таких процессов, как разработка методики исчисления прямых налогов, совершенствование механизма налогообложения и налогообложения, координация финансовой и налоговой отчетности хозяйствующих субъектов в связи с внедрением международных стандартов. Последовательное решение этих задач требует научного решения таких проблем, как совершенствование учета налога на прибыль для субъектов предпринимательства, исчисление налога по индивидуальной предпринимательской деятельности, предоставление льгот при установлении и уплате налога на доходы физических лиц.

Указы Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы», № УП-5468 от 29 июня 2018 года «О Концепции совершенствования налоговой политики Республики Узбекистан», № Ф-5214 от 13 февраля 2018 года «Об организационных мерах по коренному совершенствованию налогового законодательства», № ПП-422 от 29 декабря 2023 года «О мерах по обеспечению исполнения Закона Республики Узбекистан о Государственном бюджете на 2024 год», № ПП-364 от 30 августа 2022 года Данное диссертационное исследование в определенной мере послужит реализации задач, обозначенных в постановлениях «О мерах по реализации задач, поставленных в открытом диалоге Президента Республики Узбекистан с предпринимателями в 2022 году», «О дополнительных мерах по переходу на международные стандарты финансовой отчетности» № ПП-4611 от 24 февраля 2020 г. и другие нормативные правовые акты в данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики.»

